

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
“XALQ IJODIYOTI” FAKULTETI “IJTIMOIY MADANIY FAOLIYAT”
TA’LIM YO‘NALISHI**

**“MADANIYAT VA SAN’AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA
BOSHQARISH” KAFEDRASI**

**MAVZU: “Mustaqil o‘Zbekistonda ijtimoiy-madaniy institutlarning
taraqqiyoti”**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Bitiruv malakaviy ish kafedrada dastlabki
himoyadan o‘tdi”

“Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil
etish va boshqarish” kafedrasining ____ - sonli
yig‘ilish bayonnomasi

“ ____ ” 2014 yil

Kafedra mudiri

Katta o‘qituvchi: Shodiev X.X

Bajardi: “Ijtimoiy madaniy faoliyat”

ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisi Axmedov.U.T.

Ilmiy rahbar:

s.f.d.professor., A.A. Umarov

Toshkent – 2014

Kirish	3
 I. BOB. O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-MADANIY	
INSTITUTLAR FAOLIYATINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	
1.1. Madaniy-ma’rifiy ishlar, ijtimoiy-madaniy institutlar faoliyati sifatida shakllanishi	7
1.2. Davlat, jamoat va boshqa ijtimoiy-madaniy institutlarning madaniy-ma’rifiy faoliyatlari	16
 II. BOB. MUSTAQIL O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY MADANIY-	
MA’RIFIY INSTITUTLAR FAOLIYATINI BOSHQARISH	
2.1. Mustaqillik sharoitida madaniyat tarbiyasining rivojlanishini boshqarish	33
2.2. Ijtimoiy-madaniy institutlarda yoshlarning madaniy tadbirlarni uyushtirish masalalari	42
Xulosa	56
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	58
Ilovalar	60

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunda dolzarb bo'lgan maummolardan biri bu shaxsni tarbiyalashdir. Hozirgi zamondagi eng katta xavf - insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi. Bu achchiq haqiqatni hech qachon unutmaslik lozim.¹

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zlarining "Barkamol avlod orzusi" "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori " nomli asarlarida "Kuch - bilim va tafakkurda" degan g'oyalarini ilgari surib, yoshlarni shunday bo'lishga undaganliklari bejiz emas. Chunki bugungi yoshlar ertangi yurt egalaridir. Shuningdek, yurtboshimiz komil inson deganda, biz avvalo ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'la oladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushinamiz, diydilar.

Sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish orzusi aynan mustaqillik bilan bog'liq ezgu intilish bo'lgani bois, istiqlolning birinchi kunlaridan boshlab uni amalga oshirish eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'lib kelmoqda. Mustaqil O'zbekistonda ijtimoiy madaniy institutlarning taraqqiy topishi xalqimizning turmush tarzini yanada yaxshilashga va insonlarning madaniy hordiq olishlariga ulkan xissa qo'shib kelmoqdalar. Ayniqsa O'zbekistan Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 2006 yil 25 avgustda imzolangan «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 14 martdagi qarori bilan tasdiqlangan "Obod turmush yili" Davlat dasturining 65-bandini bajarish yuzasidan hamda aholining, ayniqsa yosh avlodning o'sib borayotgan madaniy-ma'rifiy ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqtini samarali va mazmunli o'tkazishini tashkil etishga ko'maklashish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi "Madaniyat va aholi dam olish markazlari"ni tashkil etish to'g'risidagi qarori yurtimizda ijtimoiy madaniy institutlarning taraqqiy etishida muhim rol o'ynadi.

¹ Karimov I. A.Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. Asarlar, 9-jild. –T.: O'zbekiston, 2001.

Shu asnoda biz shaxs tarbiyasini targ'ib qilishda sohamizdan kelib chiqib yodashadigan bo'lsak madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishdan eng katta asosiy maqsad shaxs tarbiyasiga qaratilgandir.

Ijtimoiy madaniy institutlarda madaniy-ma'rifiy tadbirlar va milliy g'oya bajaradigan yana bir muhim funksiya tarbiyaviy funksiyadir. Bu funksiya globallashuv jarayonlari tezlashib borayotgan hozirgi murakkab davrda yana ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki kiyingi yillarda yaxshilik, saxiylik, insonparvarlik, vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish borasida ko'pgina ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa ta'lim jarayonida shaxs tarbiyasi bugungi kunning dolzarb muammolari sifatida e'tirof etilmoqda.

Ijtimoiy madaniy institutlarning taraqqiy topishi masalasi asosiy negizi mavzuning dolzarbligini aniqlab beradi. Ijtimoiy madaniy institutlar faoliyatida shaxs tarbiyasi shu kunlarda nima sababdan yana dolzarb muammoga aylanmoqda, degan savolga javob berishni istasak shuni e'tirof etish lozim bo'ladiki, eng avvalo bu masala so'ngi yillarda butun yer yuzi miqiyosida yuz berayotgan keskin o'zgarishlar silsilasi bilan qolaversa, yangi asr bo'sag'asida insoniyatining fikrlash xususiyatlarida yuz bergan tub o'zgarishlar bilan uzviy bog'liqdir.

O'zbek xalqining davlat qurulishidagi tarixi boy tajribasi an'analari asosida xalqaro huquq qoidalariga umumbashariy qadriyatlariga va demokratiya tamoyillariga amal qilgan holda qaror topmoqda.

O'zbekiston o'z ilm fan va texnika taraqqiyotining negizida hozirgi keng islohatlar jarayonida yangi jamiyat fuqorosini tarbiyalashda ongli e'tiqodga aylantirish, hamda bu hozirgi davr talab darajasida bilimli salohiyatli, yuksak axloqli, jismonan baquvvat sifatlarga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash, uning ma'naviy dunyosini boyitishdek ulkan vazifalarini amalga oshirishni taqoza etmoqda. Buning uchun ta'lim jarayonida shaxs tarbiyasini va insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish orqali ularda ezgulik, samimiylik, do'stlik va birodarlik fazilatlarini targ'ib qilish uning amaldagi faoliyatga moddiy va

ma'naviy yutuqlarga asoslangan faoliyatga aylantirish muhim zaruriyat hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi: Mustaqil O'zbekistonda ijtimoiy madaniy institutlari va madaniy-ma'rifiy ishlar jarayonida shaxs tarbiyasini targ'ib qilish, imkoniyatlaridan foydalanish va uni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbqiq etish.

Tadqiqotning vazifalari:

- ijtimoiy madaniy institutlari taraqqiyotga erishishini va ahamiyatini o'rganish:

- ijtimoiy madaniy institutlari faoliyati jarayonida uchrayotgan muammosini hal qilishni aniqlash:

- madaniyat muassasalari faoliyati jarayonida targ'ibot omilining asosiy e'tiborini shaxsni shakillantirishga jalp qilish:

Tadqiqotning ob'yekti: Mustaqil O'zbekistonda ijtimoiy madaniy institutlari va madaniyat muassasalari faoliyati jarayonida amalga oshirilayotgan ishlarni yanada jadallashtirish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti: Ijtimoiy madaniy muassasalarda madaniy-ma'rifiy tadbirlar samaradorligini oshirishda targ'ibot tashviqot ishlarida qolaversa kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida barcha ta'lim muassasalari faoliyatni asosiy qismini shaxs tarbiyasiga katta e'tibor berish imkoniyatlaridan foydalanishning shakl, metod va vositalari.

Tadqiqotning metodlari: mavzuga oid matreallarni yeg'ish va o'rganib chiqib tahlil qilish, savol-javob, suhbat, surovnoma, anketa va testlardan foydalanish.

Tadqiqotning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar toyyorlash milliy dasturi" Prezident farmonlari va qarorlari hamda Vazirlar mahkamasining sohaga oid ishlab chiqilgan qarorlari. O'zbekiston Prezidenti I.A Karimovning "ijtimoiy madaniy institutlar faoliyatini rivojlantirish va ular faoliyatidan keng foydalanish" haqidagi nazariy yondashuvlar sharq mutaffakirlari tomonidan mavzuga oid yaratilgan ilmiy asarlar hamda mavzuga oid ilmiy jurnallardagi maqolalar va tezislar ishda o'z aksini topgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: barcha ijtimoiy madaniy institutlarning taraqqiyotiga, madaniyat muassasalar va ta'lim jarayoniga tizimli yondashildi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati:

- ijtimoiy madaniy institutlar va mavzuga oid bazi bir terminlarga izohlar va ta'riflar berildi. tushunchalar berildi. targ'ibot omilining shaxs tarbiyasidagi rolga madaniyat muassasalari faoliyati imkoniyatlaridan foydalanishning shakl va metodlari tadqiq qilindi.

BMIning strukturaviy tuzilishi: quydagilardan iborat, kirish, asosiy qism (2-bob 4 ta punkit), xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

I. BOB. O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-MADANIY INSTITUTLAR FAOLIYATINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Madaniy-ma’rifiy ishlar, ijtimoiy-madaniy institutlar faoliyati sifatida shakllanishi

Har qanday fan, o‘quv predmeti, umuman, bilimning barcha sohalari ilmiy asos yoki nazariyasiz rivojlana olmaydi.

NAZARIYA - hayot xodisalari, inson tajribasi, amaliy faoliyat haqidagi bilimlarni yig‘adi, umumlashtiradi, mantiqiy bir sistemaga soladi.

Nazariya-ma'lum bilimlar sohasidagi inson tafakkurining ob'yektiv qonunlarini aks etiradi, mantiqiy fikrlash yo‘li bilan ishlab chiqargan bilim qoidalar asosi va majmuasini vujudga keltiradi. Nazariyaning asosiy vazifalaridan biri kishilar bilimini boyitib va chuqurlashtirib borishidir.

Hozirgi davrda «Madaniy - ma'rifiy faoliyat» asoslari fanini shakllantiradigan asoslar, ya'ni uning mohiyati, hayotda tutgan o‘rni, vazifalari, o‘ziga asos xususiyatlari va ularni tashkil qilish qonun - qoidalari haqidagi bilimlar mavjud.

O‘zbekiston mustakillikni qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardayoq ijtimoiy hayotni qayta qurish, bozor iqtisodiyotiga o‘tish, ishlab chiqarishni rivojlantirish masalalari bilan bir qatorda aholining turmush madaniyatini tubdan yaxshilash, kishilarning bo‘sh vaqtini mazmunli uyushtirish, ularning o‘sib borayotgan ma'naviy ehtiyojlarini to‘laroq qondirish, xalqning badiiy xavaskorlik ijodi va qobiliyatlarini rivojlantirish kabi dolzarb muammolarga jiddiy e'tibor berildi.

«Madaniy - ma'rifiy faoliyat», avvalo, ijtimoiy-madaniy muassasa, madaniyat uylari, madaniyat va istirohat bog‘lari, muzeylar, kutubxonalar faoliyatidir. Ijtimoiy-madaniy muassasalar bu g‘oyaviy va tarbiyaviy ishlar jarayonining tarkibiy qismi hisoblanib, ular xalqimizning ijtimoiy-madaniy hayotida muhim rol o‘ynaydi. Ularni har tomonlama rivojlantirish, xavaskorlik ijodiga jalb qilish va mazmunli hordiq chiqarishni uyushtirish orqali olib boradi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat, asosan kishilarning ishdan bo‘sh vaqtlarida olib boriladi, kishilarga asosiy ishdan tashqari har xil mazmundagi va shakldagi

«ikkinchi» faoliyat bilan shug'ullanishlariga imkoniyat yaratadi. Bu faoliyat kishilarning hordiq chiqarishga, bilimini, dunyoqarashini o'stirishga, ijodkorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, ular o'z navbatida asosiy ish faoliyat bilan yaxshiroq shug'ullanishga samarali yordam beradi.

Madaniy - ma'rifiy faoliyat - aholini ma'naviy kamol toptirish, madaniy saviyasini oshirish, bilimini o'stirish, dunyoqarashini kengaytirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, bo'sh vaqtini samarali o'tkazishga ko'mak beruvchi ijodiy-tashkiliy ishlar majmuasidir.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning o'z ob'yekti, predmeti va ish faoliyati mavjud.

Madaniy - ma'rifiy faoliyat quyidagi ishlardan iborat:

1. Tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish.
2. Xalq xavaskorlik ijodini o'stirish.
3. Kishilarning dam olishini tashkil qilish.

Bu ish faoliyatlari madaniy-marifiy ishlarning shakllarini vujudga keltiradi. Madaniy-ma'rifiy faoliyat turlariga spektakl, ommaviy tomosha, xalq sayllari, bayramlar, karnaval, raqs kechalari, viktorina, ko'rgazma, konkurs, sayoxat va ekskursiya kabilar kiradi¹.

Ko'rinib turibdiki, ijtimoiy-madaniy faoliyatining ish shakllari xilma xil va ko'pdir. Ular haqida to'liq tushunchaga ega bo'lish uchun maxsus tasnif mavjud. Ular ichida ikki xil tasnif diqqatga sazovordir. Birinchi tur tasniflashga madaniy - ma'rifiy ish shakllariga qatnashadigan kishilarning soni asos qilib olinadi. Ular quydagilarga bo'linadi: yakka, guruhli va ommaviy shakllar.

1. Yakka shakllar-mutaxassis va tinglovchi o'rtasidagi konsultatsiya, yakka suxbat, ommaviy mashg'ulotlardan tashkil topadi.

2. Guruhli shakllar - taxminan 15-30 kishi qatnashadigan tadbirlar, ya'ni munozara, seminar, suxbat, ekskursiya, xavaskorlik jamoalari mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi.

3. Ommaviy shakllar soni cheklanmagan, katta auditoriyaga mo'ljallangan ma'ruza savol-javob kechalari, mavzuli kechalar, ommaviy

¹ Giddens E. Sotsiologiya. – Toshkent.: Sharq, 2002. - 848 b.

tomoshalar, bayramlar va boshqalarda vujudga keladi. Ommaviy shakllar Ijtimoiy-madaniy faoliyatning asosiy qismini tashkil qiladi.

2-tur tasniflash madaniy faoliyatda qanday ta'sirchan vositalardan va usullardan foydalanish asosida vujudga keladi. Bu borada ham ish shakllari 3ga bo'linadi: monologik, diologik va ko'p tarmoqli shakllar.

1. Monologik shakllar - bu notiqning ogzaki, «jonli» so'zi hamda boshqa ta'sirchan vositalar orqali auditoriyaga axborotlar beradigan tadbirlar. Masalan, ma'ruza, doklad, axborot va boshqalar.

2. Diologik shakllar bular asosan, muloqot, suxbat, fikr almashishlardan iborat bo'lib, unga suxbat, munozara, uchrashuv, savol-javob kechalari kiradi.

3. Ko'p tarmoqli shakllar deganda monologik va diologik shakllar bilan bir qatorda boshqa ta'sirchan vositalardan foydalanish mumkin bo'lgan tadbirlar tushuniladi. Masalan, ogzaki jurnal, mavzuli kechalar.

Madaniy - ma'rifiy faoliyatning uch asosiy bo'gini mavjud bo'lib, bular: madaniyat, ma'naviyat va ma'rifatdan iborat.

Madaniyat arabcha «madina» (shahar kentlar) so'zidan kelib chiqqan. Arablar kishilar hayotini ikki turga bo'lib, birini badaviy yoki saxroyi turmush, ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Badaviylik bu ko'chmanchi holda cho'l saxrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik esa shaharlarda o'troq yashab, shaharga xos turmush tarzida yashovchi xalqlarga nisbatan ishlatilgan.

Madaniyat atamasi keng ma'noda qo'llanib jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy hayotda qo'lga kiritilgan yutuqlar majmuini biror ijtimoiy guruh yoki xalqning ma'lum davrda qo'lga kiritilgan shunday yutuqlari darajasini, o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik va ma'rifatlilikni hamda turmushning ma'rifatli kishi ehtiyojlariga mos keladigan sharoitlari majmuini bildiradi.

Madaniyat ikki turga bo'linadi: moddiy va ma'naviy madaniyat.

Moddiy madaniyat moddiy faoliyatning barcha sohalari hamda uning samaralari-mehnat qurollari, turar-joy, kundalik turmush buyumlari, kiyim-kechak, transport, aloqa vositalari va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ma'naviy madaniyatga

aqlan va ma'nan yaratuvchanlik sohalari-bilim, aloqa, ta'lim-tarbiya, xuquq, falsafa, nafosat, fan, san'at, adabiyot, folklor, din va shu kabilar kiradi.

Faqat bir xalqqa tegishli, faqat bir xalq madaniyatining asosini shu millat yaratgan bo'lsada, unda jaxon xalqlari yaratgan umuminsoniy madaniyatning ulushi va ta'siri bo'ladi, albatta.

Madaniyat-umuminsoniy xodisa, lekin Sho'ro mafkurachilari aytib kelganidek sinfiy xodisa emas. Madaniyat barchaga baobardir.

Har bir jamiyat va davr o'z madaniyat ko'rinishiga ega bo'ladi. Jamiyat o'zgarishi bilan uning madaniyati o'zgaradi-yu, lekin madaniy taraqqiyot uzilib qolmaydi, ilgari madaniyat yo'q bo'lib ketmaydi, madaniy meros va an'analari saqlanadi.¹

O'tmish davrlardan insoniyatga qolgan moddiy va ma'naviy madaniyat boyliklari majmuiga madaniy meros deyiladi. Har bir yangi avlod moddiy va ma'naviy madaniyat negizini yangitdan yaratmaydi, balki ajdodlar tamonidan yaratilgan madaniy boyliklarni qabul qilib oladi.

Madaniy merosning o'z dunyoqarashi, tuzumi, manfaatlarga mos keladigan, bugun va kelajak uchun xizmat qiladigan qismini qabul qiladi. Chunki o'tmishdan qolgan barcha narsalar bir xil qadriyatga ega bo'lmaydi. Masalan, sho'rolar zamonida yaratilib, uning siyosatini targib etgan endilikda o'z umrini yashab bo'lgan kitoblarning bugun uchun ham, kelajak uchun ham qadriyati yo'q. To'g'ri, ular meros, lekin madaniy meros emas, ularni tarixiy fakt sifatida saqlab qo'yish mumkin, xolos.

Demak, madaniy merosning qadri abadul-abad tushumaydigan qismiga milliy qadriyatlar deyiladi. Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma'naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bagishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta'minlanish bilan kifoyalanish ongsiz va ruhsiz maxluqlarga xos. Ma'naviyatga intilish esa rux va ong egasi bo'lmish insonga xos fazilatdir.

Ma'naviyat - odamning ruhiy va aqliy olamligini majmuidir.

¹ www.google.uz

Ma'naviyat - jamiyatning, millatning yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruxiy kechinmalari, aqliy qobiliyatiga, idrokini mujjassamlashtiruvchi tushuncha. Ma'naviyat inson va jamiyat madaniyatining negizi inson va jamiyat hayoti ma'lum yo'nalishining bosh omilidir.

Ma'naviyat boyib borsa, jamiyat ravnaq topadi, va rivojlanadi, ma'naviyat qishloqlansa, jamiyat tanazzulga yuz tutadi.

Shuning uchun mustaqillik yillarida ma'naviyatga kuchli e'tiborga borilayotganligining sababi ham shunda. Boy ma'naviyatsiz buyuk davlat ko'rib bo'lmaydi.

Ma'naviyat keng tushuncha bo'lib, ma'rifat, madaniyat tushunchalarini ham o'ziga qamrab oladi.¹

Har bir jamiyatning ma'naviyat darajasi uning iste'dod egalarini, umuman, o'quvli shaxslarini qadrlash, ularga gamxo'rlik ko'rsatilishi, kamol toptirishiga uchun yetarli shart - sharoitini ta'minlab berishi bilan ham belgilanadi. Rivojlangan, ma'naviyatli jamiyatlarda iste'dod egalari millatning yuzi, g'ururi va kelajagi deb qaraladi. Bizning o'zbek jamiyatimiz ham shu yo'ldan bormoqda.

Turon va Turkistonda azaldan iste'dod egalarini e'tirof etish va munosib qadrlashga hamisha e'tibor berib kelingan. Bir tarixiy misol A.Navoiy buyuk asari «Hamsa» ni yozib tugatgach, Sulton Xusayn Boyqaro ulug' bobomizni saroyga taklif qiladi, peshvoz chiqib, karnay-surnaylar sadosi ostida zo'r tantanalar bilan kutib oladi, arkoni davlat, amirlar, vazirlar, ulamo va fuzalo hozirligida shoirga shoxona sarpolarni o'z qo'li bilan kiygizadi, kumush bilan ziynatlangan egar-jabduqli oq argumoqqa mingazadi A.Navoiy mingan ot jilovini Xusayn Boyqaroning o'zi tutganicha Xuroson mamlakatining poytaxti bo'lmish Xirotning bosh ko'chalarini aylantirib chiqadi. Xaloyiq ularni bab-barobar olqishlaydi. Biri buyuk asar yaratgani uchun, ikkinchisi shu asar yaratuvchining qadriga yetgani uchun shunday olqishlarga sazovor bo'ladilar. Bu buyuk asarning shoxona taqdirlanishi edi.

¹ www.google.uz

Biroq mustamlakachilik, chorizm zulmi va sovet imperiyasi yillarida yurtimizda iste'dod egalari to'la bo'y ko'rsatishlariga e'tibor berilmadi. Chunki bundan kommunistik tuzum manfaatdor emasdi, u yirik iste'dod egalari paydo bo'lishi xalqning milliy ruxi va gururini uyg'otib yuborishidan cho'chir edi.

O'zbekiston Respublikasi milliy mustaqillikka erishgach har sohada bo'lgani kabi iste'dod egalariga bo'lgan munosabat ham o'zgardi. Ilm-fan, adabiyot, san'at va me'morchilik sohalarida iste'dodli yoshlarni izlab topish, ularning ijodiy salohiyatini yurtimiz mustaqilligi va xalqimiz ma'naviyatini boyitishga yo'naltirish, ularga g'amxo'rlik qilish kun tartibiga qo'yildi. Respublika Prezidentining bu boradagi qator farmonlari, hukumat qarorlari fikrlarimizni tasdiqlaydi. Buni jamiyatimizning ma'naviy darajasini ko'rsatuvchi belgilardan biri deyish mumkin.

Ma'rifatning lug'aviy ma'nosi-bilish, tanish, bilimdir. Bu so'zning ko'plik shakli maorifdir.

Ma'rifat-tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma'lumotlar majmuasini bildiradi. Ma'rifatli degani-bilimli, muayyan sohada ma'lumoti bor, deganidir. Ma'rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi. Maorif asosan, umumiy va o'rta maxsus bilim beruvchi maktab va o'quv yurtlari tarmoqlarini qamrab oldi. Ma'rifat tushunchasi esa kengroq bo'lib, bilim va madaniyatni yoyish va yuksaltirishning hamma turlari va sohalarini o'ziga qamraydi.

Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga o'tishi, bir tarixiy davrdan ikkinchi bir tarixiy davrga o'tishi ma'rifatparvarlikdan boshlanadi. Zamonaning eng yetuk, ongli, deb yashovchi, uzoqni ko'zlovchi ma'naviyatli siymolari ma'rifatparvarlik bilan shug'ulanadilar.

Har bir davrning o'z ma'rifatparvarlari bo'ladi. A. Donish, Muqimiy, Furqat, Komil Xorazmiy, A.O'tar, Zavqiy kabilar o'z asarlarida xalqni qoloqlikdan qutqarish yo'lini ma'rifatda ko'rdilar.

Munavvar qori, M.Behbudiy, A.Avloniy, S.Ayniy, Abdurauf Fitrat va boshqalar xalqni milliy uyg'onishga da'vat etdilar.

Madaniy - ma'rifiy muassasalar quyidagi turlarga bo'linadi: Kutubxona, muzey, madaniyat uyi, istiroxat bog'i, madaniy dam olish maskanlari.

Kutubxonalar o'zlarining vazifalari, faoliyatlari, kitob fondlarining tarkibiga qarab, ommaviy, texnikaviy va turli maxsus kutubxonalar, o'quv yurtlari, kutubxonalari, ilmiy kutubxonalarga bo'linadi. Ommaviy kutubxonalar aholining turli sohaga doir kitoblarga bo'lgan talablarini qondirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi tizimida quyidagi kutubxonalar bo'ladi:

1. Respublika kutubxonasi.
2. Viloyat kutubxonasi. Ular respublikadagi, viloyatdagi, shahar, tuman, qishloq kutubxonalariga uslubiy yordam beradilar.
3. Shahar, tuman kutubxonalari quyidagi turlarga bo'linadi.
4. Qishloq kutubxonalari.
5. Bolalar kutubxonalari.
6. Madaniyat uyi byudjetida turuvchi klub-kutubxonalari.

O'quv yurtlari kutubxonalari. Ular o'zlarining fondlariga qarab umumt a'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari, malaka oshirish kurslari va institutlarning kutubxonasiga bo'linadi.

Ilmiy-texnika va turli maxsus kutubxonalar. Bu kutubxonalarning kitob fondlari ishlab chiqarish malakalarini oshirishda, xalq xo'jaligi yo'nalishidagi madaniyatning konkret vazifalarini hal qilishda turli sohadagi xodimlarga yordam beruvchi adabiyotlardan tashkil topadi. Bularga korxona, ilmiy muassasalar, nashriyotlar, konstruktorlik tashkilotlari, teatr, muzika, sport tashkilotlarining kutubxonalari kiradi.

Ilmiy kutubxonalar. Ular o'z ishlarini fan, madaniyat, ishlab chiqarish talabalarga muvofiq tashkil qiladi, mutaxassislarga ilmiy malakalarini oshirishda ko'maklashadi. Muzeylar - Ular vazifasi tarixiy xujjatlarni, moddiy va ma'naviy madaniyat yodgoriliklarini, san'at asarlarini, tabiat boyliklarining namunalarini to'plash, saqlash, ularni ilmiy ishlab chiqarish va ko'rgazmaga ko'yishdan

iboratdir. Shular bilan birgalikda muzeylar ilmiy - tekshirish ishlarini ham olib boradilar.

Muzeylar quyidagi tarmoqlarga bo'linadi:

1. Tarix muzeylari.
1. Xotira yodgorlik muzeylari.
2. O'lkashunoslik muzeylari.
3. San'atshunoslik muzeylari.
4. Tabiiy-ilmiy muzeylar.

1. Tarix muzeylarida Vatanimiz tarixini aks ettiruvchi xujjatlar, yodgorliklar, moddiy va ma'naviy madaniyat esdaliklari to'plangan bo'ladi.

2. Xotira-yodgorlik muzeylari Respublikamizning mashhur arboblari; shuxrat qozongan yozuvchi va rassomlar, kompozitor, olimlari, san'atkorlar xotirasiga bag'ishlangan bo'ladi. Bularga G'.G'ulom, A.Qahhor, Oybek uy-muzeylari, O'rol Tansiqboyev, M.Ashrafiy uy-muzeylari, Tamaraxonim, M.Turg'unboyeva va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

3. O'lkashunoslik muzeylari. Viloyat, tumanning tabiiy sharoiti tarixi, xo'jaligi madaniyati va turmushini harakterluvchi xujjatlar va yodgorliklarni to'playdi.

4. Tabiiy-ilmiy muzeylarga tabiatshunoslik, biologiya, geografiya muzeylari kiradi.

5. San'atshunoslik muzeylari. Ularga tasviriy san'at, amaliy san'at, arxitektura, musiqa, teatr san'ati yutuqlarini ko'rsatuvchi muzeylar kiradi.

Madaniyat uylari, saroylari ikki turga bo'linadi:

I. Madaniyat Vazirligi tarmog'idagi madaniyat uylari. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Shahar madaniyat uylari - bular davlat tarmog'idagi madaniyat uylari bo'lib, shahar aholisiga xizmat ko'rsatadi.

2. Tuman madaniyat uylari.

3. Qishloq madaniyat uylari - o'zlari yashaydigan qishloq aholisiga madaniy xizmat ko'rsatadi.

II. Kasaba qo‘mitasi tarmog‘idagi madaniyat muassasalari. Ularga korxona qoshidagi, shuningdek, sanatoriylar, dam olish uylarining klublari ham kiradi. Ular o‘z tashkilotlarining ixtiyorida bo‘ladi.

Madaniyat va istiroxat bog‘lari - ularda ommaviy sayillar, karnavallar, sport va boshqa bayramlar, turli ommaviy tomoshalar o‘tkaziladi, spektakllar, kinofilmlar qo‘yiladi, siyosiy va ilmiy ma’ruza va dokladlar tinglanadi. Madaniy dam olish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan bo‘ladi. Bundan tashqari madaniyat va istiroxat bog‘larining bezagi, ulardagi tabiiy manzarali joylar kishilarning estetik didlarini o‘stirishga yordam beradi.¹

Teatrlar - sahna asarlarining janrlariga muvofiq, quyidagilarga bo‘linadi:

- A) opera va balet teatrlari.
- B) drama.
- V) muzikali komediya teatrlari.
- G) yosh tomoshabinlar teatrlari.
- D) qo‘g‘irchoq teatri.
- Ye) miniatyura teatrlari.
- J) estrada teatrlari.

Konsert tashkilotlariga quyidagilar kiradi:

- A) davlat filarmoniyalari;
- B) davlat estrada jamoalari
- V) mustaqil musiqa jamoalari.

Kinoteatrlar - kinofilm namoyish qilish uchun maxsus jixozlangan maskan.

Shuningdek, ma’naviy - ma’rifiy ishlar bilan ommaviy axborot vositalari (radio, tv, matbuot);

Ta’lim tarbiya muassasalari;

Ijodiy uyushmalar (yozuvchilar, rassom, kompozitorlar, teatr arboblari) ham shug‘ulanadilar.

¹ Bekmurodov M.B., Begmatov A. Milliy mentalitet va rahbar ma’naviyati. – Toshkent.: Adolat, 2003.

1.2. Davlat, jamoat va boshqa ijtimoiy-madaniy institutlarning madaniy-ma'rifiy faoliyatlari

Ijtimoiy-madaniy faoliyat nazariyasini uzlashtirishda ularning mohiyati va ijtimoiy-madaniy hayotda tutgan o'rnini bilish muhim bo'lganidek, ularning tamoyillari, o'ziga xos xususiyatlari va vazifalarini ilmiy asosda o'rganish ham katta ahamiyatga egadir.

Mustaqillik respublikamiz ijtimoiy-madaniy muassasalari zimmasiga bo'sh vaqt sharoitida ijtimoiy-madaniy faoliyatning mohiyatini ifodalaydigan va uning yo'nalishi, mazmuni hamda shakllarini belgilaydigan eng umumiy qoidalarni - ijtimoiy-madaniy faoliyat tamoyillarini shakllantirish imkonini ham berdi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning o'ziga xos tamoyillari ularni tashkil qilishda yo'l-yuriqlar ko'rsatadigan asosiy manba hisoblanib, ular quyidagilardan iboratdir:

- hayotiylik;
- ommaviylik;
- ixtiyoriylik;
- ilmiylik.

Hayot bilan, mustaqil davlatimizni rivojlantirish amaliyoti bilan hamohanglik, buning uchun kishilar oldida turgan vazifalarning mohiyatini tushuntirish, ularni mustaqillikni mustahkamlash va kelajagi buyuk davlat yaratishdagi tarixiy rolini anglash ruhida tarbiyalash ijtimoiy-madaniy faoliyatning hayotiyligidan darak beradi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning hayotiylik tamoyili aniqlik va maqsadga yo'naltirilganlik xususiyatlarini ham o'z ichiga qamrab oladi. Bu shuni anglatadiki, madaniyat muassasasidagi har bir tadbir muayyan xususiyatga ega bo'lishi va mustaqillik davri talablari bilan bog'liq holda aniq ifodalangan maqsadga ega bo'lish kerak. Shuningdek, u o'zining butun tabiati va mazmuni bilan har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishni ragbatlantiradi, insonga o'z qobiliyati va talantini namoyon qilish, rivojlantirish uchun keng imkoniyat beradi,

inson hayotiga rang-baranglik kiritadi. Tabiat bilan muloqotda bo'lishiga yordamlashadi.¹

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning ommaviylik tamoyili bir qator ijtimoiy jihatdan ahamiyatli vazifalarni bajaradi, ya'ni ommaning ijtimoiy-madaniy ijodiyotini hamda ijtimoiy faolligini rivojlantiradi, ommaviy muloqotda bo'lishni tashkil etadi va shular asosida jamoatchilik fikrini shakllantiradi. Shaxsga ta'sir etish nuktai nazaridan ommaviylik tamoyilining o'ziga xos tamoyili shundan iboratki, har bir kishi ijtimoiy-madaniy tadbirlarda faqat tomoshabin yoki kuzatuvchi sifatida emas, balki ro'y berayotgan xodisalarning faol qatnashchisi, o'z qarashlarini isbot qiluvchi shaxs sifatida ishtirok etishi mumkin. Shu bilan birga ommaviylik tamoyili insonga ijtimoiy jihatdan o'z-o'zini namoyon qilish imkonini ham yaratadi.

Ijtimoiy-madaniy muassasasi insonni ixtiyoriy asoslarda, unga doimiy hurmat va ishonch ruxida ijtimoiy-ijodiy faoliyatga tortadi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat hamma vaqt tula ixtiyoriylik tamoyillari asosida ko'riladi. Agar mehnat jamoalarida insonning faoliyati ba'zan sof moddiy sabablarga ko'ra belgilansa, ijtimoiy-madaniy faoliyatda, birinchi navbatda, faoliyatning mazmuniga qiziqish asosida namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, ijtimoiy-madaniy muassasa jamoasi shaxsning ma'naviy-ijodiy qobiliyatini namoyon qilish va rivojlantirish uchun erkinlik beradi. Bu tamoyilning ahamiyati ijtimoiy-madaniy muassasasiga qatnashishning ixtiyoriyligi, u yoki bu ijtimoiy-madaniy uyushmalarida ishtirok etishni tan olish bilan cheklanib qolmaydi. Ixtiyoriylik ijtimoiy-madaniy muassasalari tomonidan taklif qilinadigan ko'plab faoliyat turlaridan birini erkin tanlab olish imkoniyatini aks ettiradi va shaxsning bo'sh vaqt sharoitida o'z ijtimoiy-madaniy faoliyatining mazmunini o'zi tomonidan belgilab olishini ifodalaydi.

Hozirgi zamon ijtimoiy-madaniy ishlari kulamining muttasil oshib borishi va murakkablashuvi undan turli sohalarning o'zaro alokasini, ilmiy asosda markazlashgan, rejali boshqaruvni talab etadi. Ilmiylik tamoyili ijtimoiy-madaniy

¹ Jabborov f. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. - T.: O'qituvchi. 2003

faoliyatning ko'zga ko'ringan tamoyillaridan biri hisoblanadi. U ijtimoiy-madaniy faoliyatda tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, shakli va uslublarini qo'llashni, bir-biriga yaqin fanlar-pedagogika, psixologiya, san'atshunoslik, estetika, iqtisodiyot va boshqaruv nazariyasining yutuqlaridan foydalanishni talab etadi.

Ilmiylik tamoyili bir qator belgilarda namoyon bo'ladi. Ular orasida ob'yektivlik belgisiga birinchi o'rinni ajratish mumkin. Ijtimoiy-madaniy ishlari tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish kerak bo'lgan ob'yektning xakikiy holati va bunday ta'sir ko'rsatishning real imkoniyatlarini hisobga olgan holda, umuman jamiyat va aloxida shaxs rivojlanishining ob'yektiv qonuniyatlarini bilib olish va ulardan oqilona foydalanish asosida ko'rilishi lozim va shunday bo'lishi kerak.

Ilmiylik voqealar, faktlar va ularning mohiyatini ochishni, ijtimoiy hayotning real manzarasini va uning rivojlanish jarayonlarini, ijtimoiy taraqqiyotning borishini belgilab beradigan kuchlarni aniqlash imkonini beradi. Voqelikni qabul qilishning tasodifiy ta'sirlarining oldini olish va bizni o'rab turgan dunyo haqida chinakam ilmiy tasavvurni paydo qilish ijtimoiy-madaniy faoliyatning muhim vazifasi hisoblanib, ilmiylik tamoyili shaxs dunyoqarashini shakllanishini kuchaytirishga katta xissa qo'shadi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning tamoyillari bir-biridan aloxida holda mavjud bo'lmaydi, ular yaxlit tizimni tashkil etadi va ularning har biri bo'sh vaqt sharoitida ommaning ijtimoiy-madaniy faoliyatida yagona jarayonning ajralmas qismini ifodalaydi. Ijtimoiy-madaniy faoliyatning tamoyillari ijtimoiy-madaniy faoliyatning mavjud qonuniyatlarini aks ettiradi va barchasi birgalikda ijtimoiy-madaniy ishlarning harakteri, mazmuni va shakllarini belgilaydi. Bu tamoyillardan birining bo'lmasligi umumiy bir butunlikning buzulishiga olib keladi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat aholining dam olishini tashkil qilish, ommaga axborot va bilim berish, ommani xavaskorlik ijodiyotiga jalb qilish kabi vazifalarni ham bajaradi.

Demak, madaniy-ommaviy tadbirlarni tayyorlashda ijtimoiy-madaniy faoliyatning o'ziga xos tashkiliy xususiyatlariga murojaat etish muhim o'rin tutadi. Chunki har xil ijtimoiy-madaniy faoliyat shaklini tashkil qilishda bu vazifalardan

birdek foydalanila bermaydi. Ba'zi shakllarda ko'proq axborot beriladi, ba'zilari, asosan, dam olish uchun xizmat qiladi, boshqalari ko'proq madaniy-ijodiy jarayonga qatnashtirishga yordam beradi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatni tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatini bilish shu sohaga oid bilimlarni konkretlashtiradi, ularni egallashga aniqlik kiritadi tadbirlar moxiyati va xususiyatini to'laroq yoritib berishga yordam beradi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatdagi tadbirlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri u bir marta tashkil qilinib, asosan, bir marta namoyish qilinadi. Agar spektakllar, kinofilmlar tayyorlanganidan sung yuzlab marta namoyish qilinsa, ijtimoiy-madaniy muassasalardagi tadbirlar, asosan, takroran qo'yilmaydi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat tadbirlarining deyarli hammasi xuddi shu xususiyatga ega. Faqat badiiy targ'ibot-tashviqot jamoalari, ba'zi mavzuli konsert dasturlari bir marta tayyorlanib, har xil joylarda bir necha marta namoyish etilishi mumkin. Ular ma'lum vaqt mobaynida (masalan, ma'lum mavsumda, ish jarayonida, ya'ni paxta, g'alla yigim-terimida...) bir necha marta namoyish qilinishi mumkin. Lekin ma'lum muddatdan so'ng, albatta boshqa yangi dastur tuzishga tayyorgarlik ko'riladi.

Agar teatrdagi qo'yilgan pyesani yana bir necha yildan keyin qaytadan sahnalashtirish mumkin bo'lsa, ijtimoiy-madaniy muassasa tadbirlarida bu holat takrorlanmaydi. Biror tadbir senariysi sxemasini ikkinchisiga qo'llash mumkin emas. Har qanday yangi senariy yangi tuzilishni, yangi mehnatni talab qiladi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning yana bir xususiyati ular, asosan, maxalliy aholi uchun, ularning real hayotidan olingan materiallar asosida tuziladi. Tadbirlarning bosh qahramoni sifatida muayyan joyda mehnat qilib, maxalliy aholi orasida namuna bo'layotgan kishilar namoyon bo'ladi. Masalan, «Xotira va qadrlash kuni»ga bag'ishlangan bayramni olaylik. Bunda maxalliy joyda yashaydigan urush qatnashchilari, mehnat faxriylarining ko'rsatgan jasoratlariga asosiy urg'u berilishi kerak. Urush qahramonlarining o'z so'zlarini eshitish tadbirini jonlantiradi va ta'sirchanligini oshiradi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning navbatdagi xususiyati shundan iboratki, ularda juda keng qo'lamda ta'sirchan vositalar birlashtiriladi.

Tadbirlar real hayotning o'zini tashkil qilishi bilan birga, undagi muhim voqealarni o'z mazmuniga singdiradi. Ularning mohiyatini ochish va ahamiyatini yoritish uchun ta'sirchan vositalarga murojaat qilinadi. Tadbirda mazmun ma'lum bir kompozitsion tuzilish holatiga kelishi uchun undagi barcha bayon qilish va ta'sirchan vositalar ham bir-birlari bilan birlashtiriladi, uyg'unlashtiriladi. Aks holda tadbirning mazmuni puch, shakli esa samarasiz bo'lib kolishi mumkin.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning navbatdagi, ya'ni to'rtinchi xususiyati bu ommani tadbir qatnashchisiga aylantirishdir.

Ijtimoiy-madaniy muassasalarida uyushtiriladigan tadbirlarni ommaviy deb atashning boisi shundaki, u omma uchun uyushtiriladi va ommaning ishtirokida o'tadi. Agar teatr, kino hamda televizorda asar qatnashchilari va tomoshabinlar o'rtasida ko'rinmas «devor» mavjud bo'lib, omma faqat tomoshabin rolini bajaradigan bo'lsa, ijtimoiy-madaniy muassasa tadbirlarda esa ommaning aktiv ishtiroki ko'zda tutiladi.

Albatta, tadbirlarda hammani birday faol qatnashtirish qiyin. Uning asosiy qatnashchilari oldindan belgilab qo'yilgan badiiy xavaskorlik jamoalarining a'zolari hamda so'zga chiqadigan kishilardir. Lekin tadbir tashkilotchisi bu asosiy qatnashchilar bilan kifoyalanib qolmasdan, balki ommani ham faollashtirish, tadbir ishtirokchisiga aylantirish yo'llaridan foydalanmogi lozim. Buning uchun tadbir ishtirokchilari o'rtasida ommaviy o'yinlar, qo'shiqlar, savol-javoblar kabi maxsus tadbirlar uyushtirish maqsadga muvofiq. Chunki san'at-odamni tomoshabin yoki tinglovchi bo'lib qolganda emas, balki u ommaviy tadbirlarda faol ishtirok etganda o'ziga hammadan ko'proq qamrab oladi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish bosqichida davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy-madaniy faoliyatini yanada takaomillashtirish g'oyat muhim amaliy ahamiyatga molik bo'lib, uni mustaqil O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ulug'vor ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar asosida amalga oshirilishi lozim. Zero, «Milliy davlatchiligimizni qayta tiklashda ko'p asrlik beqiyos ma'naviy merosimiz, tarixu madaniyatimiz, dinu tilimiz, muqaddas urf-odatlarimizning yana qad rostlashida sezilarli qadamlar qo'yildi.

Milliy g'ururimiz, oriyatimiz tiklanmoqda, qalbimizda asl vatanparvarlik tuyg'ulari uyg'onmoqda»¹.

Mamlakatimizda amlaga oshirilayotgan ma'naviy tiklanish jarayoni, xalqning madaniy hayotida kechayotgan isloxot rejalarini amalga oshirishda, jamoat tashkilotlarining faol ishtiroki zarurligini talab etmoqda. «Biz, - deb ta'kidlagan edilar Prezidentimiz I.A.Karimov, - fuqarolik jamiyatini qurishga intilmoqdamiz. Buning ma'nosi shuki, davlatimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni o'zini o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir».

Milliy mustaqilligimiz dadil odimlayotgan hozirgi davrda davlat, iqtisodiyot, madaniyat va ijtimoiy ongning barcha bo'g'inlari orasidagi o'zaro aloqadorlik va uzviy bog'liqlikning amaliy ahamiyatini e'tiborga olib, ijtimoiy-madaniy faoliyatni ko'tarishga katta e'tibor berilmoqda.

Zero, mamlakatimiz oldida turgan dolzarb ijtimoiy muammolarni xal qilishda jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining roli kattadir. Ayniqsa, maxalla muhim ijtimoiy bo'g'in hisoblanadi. Shu bois maxallalar faoliyatini har jihatdan qo'llab - quvvatlash, ularning moddiy ta'minotini mustaxkamlashga davlatimiz aloxida e'tibor bermoqda. Mamlakatimizda kechayotgan isloxotlarning tayanchi sanalgan maxallaning ijtimoiy hayotdagi o'rni haqida Prezidentimiz I.A.Karimov shunday yozadilar: «Jamoatchilik g'oyalari, jamoa manfaatlarining birligi, ko'pchilik fikrining ustunligiga asoslanish - jamiyatimizning muhim xususiyatidir. Shu bois jamiyatni demokratiyalash tizimida, uning aossiy qoidalarini, eng avvalo ijtimoiy adolatni ro'yobga chiqarishda maxallaning roli g'oyat kattadir. Hozirgi vaqtda oilalarning xaqiqiy moddiy axvolini, ularning ma'naviy va madaniy qiziqishlari doirasini maxalladan ko'ra yaxshiroq biladigan boshqa tizim yo'q. Maxalla hozir xalq ishonchini qozongan adolat maskani hamda aholini ijtimoiy qo'llab - quvvatlash

¹ M. Bekmurodov "O'zbek mentaliteti" –T.: 2011 yil.

mexanizmi bo‘lib qoldi. U jamiyatimizda isloxlarni amalga oshirishning ishonchli tayanchi va ta'sirchan vositasiga aylanishi darkor».¹

Jamoat tashkilotlarining milliy mustaqillik sharoitida ijtimoiy-madaniy faoliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyatlarining asosiy maqsadi va vazifalari Prezidentimiz asarlarida mukammal bayon etilgan bo‘lib, bu fikrlar davlat va millat kelajagini belgilovchi ilg‘or g‘oyalarni o‘zida mujassamlashtirgan.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning rivojlanishida jamoat tashkilotlarining roli masalasi ko‘pgina o‘zbek olimlari tomonidan falsafa, sotsiologiya, pedagogika va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganilgan.

Davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy-madaniy faoliyatlari bevosita aholi ma'naviy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lib, turli-tuman shaklda voqea bo‘lishi bilan harakterlanadi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat quyidagi umumiy jihatlari bilan ajralib turadi:

a) u faqatgina ustun rivojlangan madaniy faoliyatga borib taqalishi mumkin emas;

b) faoliyat mazmuni va natijalari madaniy faoliyatning yetakchi tamoyili hisoblanadi;

v) madaniy qadriyatlar yaratish va ommalashtirish ijodiy jarayon bo‘lib, unda sustgarchilikka yo‘l qo‘yilmaydi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat o‘z tabiatiga ko‘ra kommunikativ faoliyat hisoblanadi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat - bu jamoa miqyosidagi ijodiy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Qishloqlardagi jamoat tashkilotlari esa shaxsni madaniy faoliyatga jalb etishga yo‘naltiruvchi ijtimoiy-madaniy faoliyatga nisbatan bunday yondashuvning asosiy xususiyati shundaki, madaniy faoliyatda sub'yekt sifatida jamoat faoliyatining namoyondasi hisoblanuvchi aloxida shaxs emas, balki jamoa, birlashma, madaniy uyushma yoki keng xalq ommasi o‘rtasida ma'naviy faoliyat olib boruvchi jamoat tashkilotlari belgilanadi. Ayni paytda jamoat tashkilotlari faoliyatining samaradorligi ular bilan individual ijodiy faoliyat birligiga bog‘liqligini ham hisobga olish zarur.

¹ Karimov I.A. Istiqol va ma'naviyat. - T.: 1994.

Qishloq madaniyati turli shakl va ko'rinishlarga ega bo'ladi. Ayrim tadqiqotchilar sub'yekt-ob'yekt munosabatlarini faoliyat turlarini guruhlash uchun qabul qilsalar, ba'zi olimlar madaniy qadriyatlarni yaratish, taqsimlash va ommalashtirishni tasniflaydi. Ular belgilar miqdoriga ko'ra faoliyatning maxsuldor va nomaxsul turlarini ajratadilar. Guruhlashtirish mezonini sifatida esa madaniy qadriyatlarni targ'ib etish vositalari nashriyot, radio, televideniye yoki madaniy faoliyatni tashkil etuvchi institutlar belgilab olinadi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatni tashkil etilishini shaklga ko'ra ham tasniflash mumkin: jamoa va individual madaniy faoliyat. Madaniy faoliyat sub'yekt xususiyatlariga ko'ra individ, guruh, uyushma, jamoa tashkilotlari faoliyati kabi turlarga bo'linadi. Madaniy faoliyatni amalga oshiradigan guruhlar tabiatiga ko'ra u oilaviy, xizmatdoshlar va boshqa turlarga bo'linadi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat turlari hamda ularni tashkil etish shakllari tasnifi xususida to'xtlaganda ta'kidlash joizki, madaniy faoliyatning shaxsiy va institut shakllarida ijodiy salohiyat bir xil darajada amalga oshishi mumkin emas. Ijodiy reja mazmuniga muvofiq faoliyatning u yoki bu shakli belgilab olinadi. Jamiyatda demokratiyalash jarayoni kechayotgan hozirgi bosqichda madaniy faoliyatni rivojlantirishning tashkiliy (institutlar darajasida) holda shaxsiy shakllari keng ommalashib bormoqda.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat ishtirok etuvchi sub'yektlar tabiatiga ko'ra individual, guruhli va ommaviy kabi shakllarga ajratiladi. Ijtimoiy-madaniy faoliyatning har bir turiga muayyan shakl mos keladi. O'qish, amaliy san'at asarlari bilan tanishish san'at asarlarini umumlashtirishning individual shakli hisoblanadi. Badiiy ijrochilik, turizm va xavaskorlik ijodiy birlashmalari badiiy qadriyatlarni ommalashtirishning guruhli shakli hisoblansa, spektakllar, filmlar, konsertlar tomosha qilish va bayramlarda ishtirok etish madaniy faoliyatning yuqorida bayon qilib o'tilgan individual, guruhli va ommaviy shakllari muayyan madaniy an'analarning uyg'unligini nazarda tutadi.

Davlat va jamoat tashkilotlarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, tarbiyaviy ishlarni olib borish va dam olishni tashkil etish kabi vazifalarni aloxida ajratib

ko'rsatish zarur. Chunki madaniy faoliyatning mazkur yo'nalishlari qishloq ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq jamoat tashkilotlari pedagogik tizim sifatida xalqqa eng yaqin turuvchi bo'g'in hisoblanadi. Ular faoliyati orqali aholining madaniy va ma'naviy saviyasi o'sib boradi. Natijada aholi o'zining ijodiy salohiyatini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Davlat va jamoat tashkilotlarining har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsalarda, ular o'zaro aloqadorlikda ish olib boradilar. Ularning faoliyatidagi mushtaraklik maqsadning umumiyligida (xuquqiy demokratik davlat qurishda ishtirok etish, qishloq madaniyatini davlat qurishda ishtirok etish, qishloq madaniyatini rivojlantirish), vazifa va mazmunning mushtarakligida namoyon bo'ladi. Har bir tashkilotning o'ziga xos xususiyati esa tarbiyaning muayyan shakli, uslub va vositasini qo'llashda ko'zga tashlanadi. Qishloqda aholi estetik ehtiyojini qondiruvchi ijtimoiy-madaniy faoliyatning turli-tuman shakllaridan, xususan, radioeshittirish, teleko'rsatuv, kino, fan va madaniyat arboblari bilan uchrashuv, suxbat, maslahat va boshqalardan foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Axborot manbalari tizimida ro'znoma, radio va televideniye asosiy o'rinni egallaydi. Jamoat tashkilotlari tomonidan o'tkaziladigan tadbirlar axborot manbalari orasida oltinchi o'rinni egallaydi. Ta'kidlash lozimki, mazkur tadqiqotning dastlabki bosqichi O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilinishi arafasida olib borildi. Tabiiyki, ko'p yillik mafkuraviy qullikda yashagan xalqimiz madaniy hayoti ham o'sha davrda sho'rolar siyosati iskanjasida edi. Bunday inqirozli vaziyat qishloq aholisi madaniy faoliyatining turlari va manbalariga nisbatan bo'lgan munosabatlarida ham o'z ifodasini topgan.

Davlat va jamoat tashkilotlarining diqqat markazida, asosan moddiy ishlab chiqarish masalalari ustivor ahamiyat kasb etgani holda qishloq madaniyatini rivojlantirish muammolariga (garchi qishloq aholisi uchun ularning zarurligi ta'kidlab turilsada) kam ahamiyat berib kelinganligini ko'rsatdi. Qishloq mehnatkashlarining e'tirof etishlaricha, madaniy faoliyatning, asosan xalq ijodiyoti, professional hamda xavaskor jamoalarning chiqishini tashkil etish kabi turlariga katta e'tibor berilib, shundan so'nggina ishlab chiqarish va texnika targ'ibotiga

ahamiyat berib kelingan. Lekin qishloq aholisi madaniy faoliyatning boshqa shakl va uslublariga nisbatan befarq emas. Madaniy faoliyatning mavzuli kechalar, savol-javob kechalari, mutaxassislar kuni bayram, marosim kabi shakllari ham samaralidir.

Jamoat tashkilotlarining ijtimoiy-madaniy faoliyatlari muammosiga bag'ishlangan nazariy manbalar hamda O'zbekiston Respublikasi xukumatining ma'naviyat va madaniyatni rivojlantirish borasidagi xujjatlarini o'rganish asosida olib borilgan tadqiqotlar davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy-madaniy faoliyatni rivojlantirish borasida faoliyatlarning uslubiy tizimini ishlab chiqishda muhim nazariy ahamiyat kasb etdi.

Qishloq madaniyatini rivojlantirish maqsadida ish olib boruvchi jamoat tashkilotlari faoliyatining uslubiy tizimi madaniy faoliyat sub'yekti, madaniy faoliyatning shakl va turlari, madaniy faoliyat ijtimoiy tashkilotlarining o'zaro aloqasi, madaniy faoliyatni rejalashtirish hamda dasturlashtirish predmeti kabilardan tarkib topadi.

Davlat va jamoat tashkilotlarining aholi madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liq faoliyatlari tizimi - bu qishloqda madaniyatning shakllanishi, saqlanishi va mustaxkamlanishiga qaratilgan tadbirlar majmuasidir. Davlat va jamoat tashkilotlari, shuningdek, aholining madaniyatini rivojlantirishdagi yuqori ijtimoiy faolligiga erishish mazkur tizimning asosiy vazifasi hisoblanadi. Ushbu vazifa tashkiliy, ijtimoiy va iqtisodiy tadbirlar majmuasidan iborat jarayon bo'lib, davlat, xo'jalik va jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlari orqali amalga oshiriladi.

Tizim tarkibiga quyidagi komponentlar kiradi:

1. Davlat va jamoat tashkilotlarining qishloq ma'naviy madaniyatini rivojlantirish borasidagi faoliyatlari.

2. Davlat va jamoat tashkilotlarining moddiy o'zgartiruvchanlik va yaratuvchanlik borasidagi madaniy faoliyatlari.

Aholi madaniyatini rivojlantirishning rejalashtirilayotgan darajasiga erishish butun aholi va har bir shaxs madaniy saviyasining o'sishi bilan bevosita bog'liqdir.

Tizimni ishlab chiqishda jamoat tashkilotlarining qishloqda olib borayotgan madaniy faoliyatlarining hozirgi holatini taxlil etish, qishloqdagi moddiy-madaniy va sport-sogʻlomlashtirish muassasalari miqdorini aniqlash hamda sotsiologik tadqiqotlar olib borish nazariy asos boʻlib xizmat qiladi.

Hozirgi paytda qishloq turmush tarzini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan madaniy faoliyat tizimini ishlab chiqish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Jamiyat aʼzolarining madaniy rivojlanishga boʻlgan talablari va shaxsning maʼnaviy komillikka boʻlgan ehtiyojlarini qondirish mazkur tizimning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu orqali madaniy faoliyat tizimida jamoat tashkilotlari faoliyatlarining samaradorligini oshirish, moddiy madaniyat yodgorliklari zaxirasini boyitish, madaniyat xodimlari va muassasalarini tashkil etish mumkin boʻladi. Tizimning maqsadi jamoat tashkilotlari, aloxida shaxs va butun qishloq aholisining madaniy faoliyatini oshirishdan iboratdir. Jamoat tashkilotlari madaniy faoliyatlarining mazkur tizimdagi predmeti madaniy qadriyatlar, yaʼni maʼnaviy boyliklarni bunyod etish va oʻzlashtirish, saqlash va targʻib etishni oʻz ichiga oladi¹.

Bozor munosabatlariga oʻtish bosqichi aholi madaniyatining rivojlanishini rejalashtirishda, dasturlash hamda yangicha yondoshuvni joriy qilishni talab etadi. Chunki busiz ijtimoiy va madaniy jarayonlarni boshqarish mumkin emas.

Jamoat tashkilotlarining qishloq madaniyatini rivojlantirishdagi ishtiroki tizimini ishlab chiqish tajribasi quyidagilarga asoslanadi:

- a) Oʻzbekiston Respublikasi mustaqilligi eʼlon qilinishi arafasida qishloqda madaniy faoliyatning mavjud holati;
- b) Mustaqil Oʻzbekistonning yangi sharoitda yuzaga kelgan madaniy faoliyat imkoniyatlari;
- v) Qishloq aholisining madaniy-maʼnaviy ehtiyojlarini qondirishning yangi usul va zaxiralari mavjudligi.

Davlat va jamoat tashkilotlari ijtimoiy-madaniy faoliyatlarini tashkil etish uchun uning tizimiy meʼyorlari aniqlandi:

¹ Boʻriyev O.B. Anʼanaviy uy qurish bilan bogʻliq rasm-rusumlar. Oʻzbek xalqi boqiy qadriyatlari. - Qarshi, 2005

- 1) qishloq aholisining u yoki bu madaniy tadbirlarga jalb etilganligi;
- 2) u yoki bu turga mansub madaniy faoliyatning izchilligi;
- 3) bo'sh vaqtni ko'ngilli o'tkazishning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlar.

Davlat va jamoat tashkilotlarining madaniy faoliyatlari mazmuni har bir kishi o'zining bo'sh vaqtida tadbir va mashg'ulotlarning muayyan bir turini tanlashi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. U shaxs rivojida bir xillik va me'yoriylikni nazarda tutmaydi. Faqatgina muayyan tadbirni tanlash erkinligi shaxs ma'naviyatining izchil rivojlanishini belgilab beradi. Davlat va jamoat tashkilotlarining madaniy faoliyatlari o'z mazmuniga ko'ra aholining umumiy madaniy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lib, quyidagilarni hisobga oladi:

a) umumiy madaniy ehtiyojlarning rivojlanish istiqbollari;

b) aholining madaniyat sohasidagi ijodiy faoliyatlari uchun yetarli sharoit yaratish.

Davlat va jamoat tashkilotlari ijtimoiy-madaniy faoliyatlarining turlarini yaxlitlashtirgan holda ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Faoliyat vaqti va shaklini shaxsning o'zi tanlaydigan madaniy faoliyatning uy turi.

2. Klub, kutubxona, muzey, ko'rgazma va boshqa ijtimoiy-madaniy muassasalarda amalga oshiriladigan uydan tashqaridagi faoliyat turi.

Davlat va jamoat tashkilotlarining mazkur tadbirlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan faoliyatlari uning samaradorligini muntazam ravishda oshirishni nazarda tutib, hamorlikda ishlashga qaratilgan.

Bugungi kunda Respublikamizda davlat va jamoat tashkilotlari tarkibi shakllanib, faoliyat ko'rsatmoqda. Uning asosiy turlari:

- jamoat tashkilotlari (kasaba uyushmalari, partiyalar, ijodiy uyushmalar, jamg'armalar va boshqalar);

- xalq xavaskorlik jamoalari, maxalla qo'mitalari va b.

Davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy-madaniy ishlarini rivojlantirish borasidagi madaniy faoliyatlari tizimi mazmunini ishlab chiqishda quyidagi omillar asos qilib olinadi:

a) Respublikamizda aholi barcha qatlamlarini ma'naviyat va madaniyatni rivojlantirishga keng jalb etish;

b) demokratiya jarayonlarini jadallashtirish, turg'unlik davri qoldiqlarini bartaraf etish;

c) milliy madaniyatni, ma'naviy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish ishlari olib borilayotganligi, Vatanga sodiqlik, el-yurtga muxabbat, yuksak ma'naviylik sifatlarini shakllantirgan o'z harakati va qarorlariga javob bera oladigan faol fuqaro pozitsiyasida turuvchi kishini siyosiy madaniyatli shaxs deb hisoblash mumkin.

Davlat va jamoat tashkilotlarining faoliyatlari ham shaxsda xuddi shu sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan. Bunday faoliyat samaradoriligi nafaqat amalga oshirilgan tadbirlar miqdori va sifatiga ko'ra, balki ularni kim tashkil etganligi hamda amalga oshirganligi, shuningdek, ularda aholining ishtirok etishi darajasiga ularda aholining ishtirok etishi darajasiga ko'ra ham baxolanadi.

a) umumahamiyatga molik vazifalarni xalq etshiga qaratilgan xalq ijodiyotini rivojlantirish maqsadga muvofiqligi, davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy-madaniy faoliyatga to'g'ri pedagogik raxbarlik qila olishi buning asosiy zamini hisoblanadi. Pedagogik rahbarlik vaziyatni, bilim va ko'nikmalarni oqilona uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Davlat va jamoat tashkilotlari alq o'rtasida amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy muloqotlar asosida shaxsning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshiruvchi vositaga aylanadi, shuningdek, jamiyat tafakkurining shakllanishida ham faol ishtirok etadi.

b) hozirgi davrda qaxvaxonalar, videosalonlar, studiyalar, o'yin xonalari musiqa va sport anjomlarini ijaraga berish. Oilaviy tantanalarni o'tkazish bo'limlarini tashkil etish orqali aholining pullik xizmatga bo'lgan talabini qondirish mumkinligi.

v) bozor iqtisodiyoti sharoiti va munosabatlari madaniyati moddiy-texnika salohiyatini rivojlantirish hamda mustahkamlashda maxalliy korxonalar yordamida va xomiylar ko'magidan kengroq foydalanishni talab qilayotganligi.

Davlat va jamoat tashkilotlari o'z madaniy-ijodiy faoliyatlarini dam olish vaqtida amalga oshiradilar. Dam olish faoliyati o'z navbatida shaxsnig mustaqil ijodiy salohiyatining amalga oshishiga ko'mak beradi, shuning uchun ham u qiziqarli, aqliy va ruhiy jihatdan boy bo'lishi lozim.

Shu jihati bilan u xavaskorlik ijodiyotidan farqlanadi va keng xalq ommasini o'ziga jalb qiladi. Ijtimoiy-madaniy muassasalar qoshida va ulardan tashqarida badiiy uyushmalar, kolleksioner va texnik ijodkorlar jamiyatlari, oilaviy hamda o'smirlar sport klublari va birlashmalari tashkil etilib, faoliyat ko'rsatadi. Ushbu ijodiy birlashmalar faoliyati xalqning qiziqarli tadbir hamda muloqotga bo'lgan ehtiyojlari asosida yuzaga kelgan.

Davlat va jamoat tashkilotlarining tarbiyaviy salohiyatlari xalq ommasi hayotini demokratiyalash vazifalarini o'z zimmalariga olishlarida namoyon bo'ladi. Bu esa siyosiy, axloqiy, iqtisodiy, huquqiy madaniyatni o'zlashtirish, ijtimoiy faollik samaradorligini oshirish, aholiga bilim hamda ko'nikmalarni chuqur egallash imkoniyatini beradi.

Jamiyat hayotini demokratiyalash jarayonida ijtimoiy adolat tamoyillarining tadbiq etilishi va mustaxkamlanishiga alohida e'tibor berilmoqda. Adolat - bu ahloq va huquq tushunchasidir. Ijtimoiy ong va axloqiy tafakkur ijtimoiy adolat yordaida kishilar xulqining ijtimoiy ahamiyatga molik jihatlarini, ijtimoiy siyosat moxiyati hamda jarayonlarini o'zida aks ettiradi.

Davlat va jamoat tashkilotlari madaniy faoliyatlar tizimini tavsiflashda sotsiologik tadqiqot natijalariga tayanish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot qishloq hayotida mahalla qo'mitalari mavqeyining oshib borayotganligini ko'rsatdi. Bu esa 36,2 % so'raluvchilarning javoblarida o'z aksini topdi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra mahalla qo'mitalarining va o'z-o'zini boshqarish idoralarining yetakchi mavqyega egaligi aniqlandi. Mahalla qo'mitalari aholi bo'sh vaqtining ko'ngilli o'tishiga muhim ta'sir ko'rsatadilar (24,3%); kishilar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlikni mustahkamlashga katta xissa qo'shadilar (25,8%) xasharlar, shanbaliklar, yordam ko'rsatishlarni amalga oshirishda ko'maklashadilar (39,6 %). Kishilar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlikni mustahkamlashda mahalla

qo'mitalaridan so'ng kasaba uyushmalari, jamoa xo'jaliklari boshqaruvi rahbarlari, qishloq kengashlari katta hissa qo'shadilar.

Davlat va jamoat tashkilotlari qishloqdagi barcha madaniy-ommaviy tadbirlarni madaniyat uylari va saroylari orqali amalga oshiradi.

Klub jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikda ish olib borib, ular faoliyatini muvofiqlashtiruvchi manbaga aylanadi, ular bilan birgalikda ijtimoiy-madaniy muassasalar o'z faoliyatini quyidagi shakllarda tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladi:

- qishloq madaniyatini rivojlantirish, sog'lom turmush tarzi, ekologik tarbiya, huquqiy madaniyat va boshqa dolzarb masalalar yuzasidan jamoat fikri minbari vazifasini bajarish.

Urf-odat va an'analar hech kimni befarq qoldirmaydi. Xalq udumlarining tiklanishi, mustahkamlanishi va rivojlanishi jamoat tashkilotlari faoliyatidagi katta ijtimoiy masala hisoblanadi. Udum va an'analar muhim estetik tarbiya vositasi bo'lib, xalqimizning milliy qadriyatlarni ulug'lash g'oyasini mustahkamlaydi, ahloqiy sifatlarni shakllantiradi¹.

Xulosa qilib aytsak, madaniyat kishilarning ijtimoiy yaratuvchanlik jarayonidagi ishtirokining me'yori hamda shaxs ijodiy salohiyatini faollashtirish vositasi hisoblanadi. Madaniyat ijodiy faoliyat sifatida ko'pgina bilim va tajribalarni egallashni, ulardan faoliyatning turli shakllaridan samarali foydalanishni nazarda tutadi.

O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining yangi sharoitida siyosiy madaniyat ijodiy faoliyat sifatida tushuniladi va bu faoliyat natijasi mintaqaviy barqarorlik va xalqaro hamkorlikni, respublikamizning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, huquqiy-demokratik davlatni barpo etishdan iborat.

Madaniyat tarkibini taxlil etish davlat va jamoat tashkilotlarining madaniyatini rivojlantirish borasidagi faoliyatlarining asosiy yo'nalishlari hamda mazmunini aniqlash imkoniyatini beradi:

¹ Bo'riyev O.B. An'anaviy uy qurish bilan bog'liq rasm-rusumlar. O'zbek xalqi boqiy qadriyatlari. - Qarshi, 2005

1. Madaniyat inson ijodiy faoliyatining o'ziga xos ko'rinishi sifatida ijtimoiy uyushmalar, jamiyat, jamoa, shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

2. Madaniyat o'z tarkibiga kishilar moddiy hamda ma'anviy faoliyatlari va uning natijalarini qamrab oladi. Bundan tashqari, uning siyosiy, xuquqiy, ekologik, mehnat, maishiy va turmush, jismoniy tarbiya madaniyatlari kabi tarkibiy uzvlari ajratiladi. Madaniyatning mazkur turlari tushunchalarining birligi. Ularning jamiyat va shaxs umumiy madaniyatini tashkil etishlarida, shu bilan birga har biri aloxida tarzda ijodiy faoliyatni va uning natijalarini ifodalashlarida namoyon bo'ladi.

3. Ko'rib o'tilgan har bir madaniyatdagi ijodiy faoliyatda quyidagilar farq qiladi: ma'lum ijtimoiy va siyosiy xodisa yuzasidan bilimlarni egallash, ularni mushoxada va qayta ishlash jarayoni va nixoyat, mazkur madaniyatni rivojlantirishda faol ishtirok etish.

Madaniyatning mohiyati, tarkibi hamda turlarini tadqiq etishga bunday yondoshuv jamoat tashkilotlarining qishloq madaniyatini rivojlantirishdagi ishtirokining o'ziga xos uslubi va me'yorlarini ochib berish imkoniyatini berdi.

O'zbekiston Respublikasida jamoat tashkilotlari hamda fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda «siyosiy partiyalar, birlashmalar, kasaba uyushmalari, yoshlar tashkilotlari, turli xil xayoriya va ijodiy jamg'armalar hamda uyushmalarda» ishtirokini yanada kuchaytirish, ularning davlat oldidagi mavqeyini mustaxkamlash vazifasi qo'yilmoqda.

Jamoat tashkilotlarining ijtimoiy-madaniy faoliyatlarining xususiyatlari quyidagilardan iborat:

a) ushbu faoliyatning maqsadi shaxsda muayyan xususiyat hamda sifatlarni tarbiyalashdan iboratdir;

b) kishilar o'rtasidagi muloqot jarayonida g'oyalar, malaka va bilimlar almashinuvi mazkur faoliyat vositasi hisoblanadi;

v) jamoat tashkilotlari faoliyati yoki individual faoliyat madaniy faoliyatni amalga oshirish usulidir.¹

¹ Jabborov f. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. - T.: O'qituvchi. 2003

Davlat va jamoat tashkilotlarining aholi ma'naviy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq madaniy faoliyatlari xilma-xil bo'lishi bilan bir qatorda unga quyidagi umumiy jihatlar ham xosdir:

- a) u faqatgina bir ustuvor madaniyatga tayanishi mumkin emas;
- b) faoliyat mazmuni va natijalari madaniy faoliyat mezonlari hisoblanadi;
- v) madaniy faoliyat mezonlarini ishlab chiqish va foydalanish sustgarchilikka yo'l qo'yilmaydigan ijodiy jarayondir.

Qishloqda madaniy faoliyat o'zining turlari va shakllariga ko'ra farqlanadi. Madaniy faoliyat shakllarini ularning tashkil etilish tavsifiga ko'ra jamoaviy va individual;

madaniy faoliyat sub'yekti tavsifiga ko'ra individ, guruh, uyushma, jamoat tashkilotlari;

madaniy faoliyat olib borilayotgan guruh turiga ko'ra esa oilaviy, xizmatdagi do'stlar va boshqa turlarga bo'lib tasniflash mumkin.

Jamiyatni demokratiyalashning hozirgi bosqichida madaniy faoliyat taraqqiyoti uyushgan (tashkilotlar darajasiga) hamda shaxsiy shakllarda amalga oshiriladi.

Aholi madaniyatini rivojlantirishda yuqori ko'rsatkichlarga erishish jamoat tashkilotlari, ijtimoiy-madaniy muassasalar va boshqa tashkilotlarning eng oliy vazifasi hisoblanadi. Bu vazifani xalq etishning yo'llaridan biri jamoat tashkilotlarining madaniyatni rivojlantirish borasidagi faoliyatlarini boshqarishni takomillashtirish va ilmiy yondoshishdan iborat bo'lishi mumkin.

Davlat va jamoat tashkilotlarining qishloq madaniyatini rivojlantirish yo'nalishidagi faoliyatlari tizimi o'zining maqsadi, vazifalari va mazmunini amalga oshirishning eng samarali vositalaridan biri-muloqotdir. Muloqot bizning nuqtai nazarimizda uslubiy tizimning muhim belgisi, milliy madaniyatni rivojlantirishning qadimiy vositasi, o'zbek xalq pedagogikasining yetakchi unsurlaridan biri sifatida olib ko'rildi. Muloqot tavsifi ommaviy axborot vositalari (teleko'rsatuvlar, radioeshittirishlar), havaskorlik ijodiyoti, bayramlar. Sayllar bevosita ta'sir ko'rsatadi.

II. Bob. Mustaqil O'zbekistonda ijtimoiy madaniy-ma'rifiy institutlar faoliyatini boshqarish.

2.1. Mustaqillik sharoitida madaniyat tarbiyasining rivojlanishini boshqarish.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslari mustaxkamlanib bormoqda. Bu jarayonda jamiyat taraqqiyoti, shaxs kamolotining bosh omillaridan biri bo'lgan madaniyat, ma'naviyatning o'rni va roli beqiyosdir.

Respublikamizda madaniy hayotni boshqarishning o'rni va ahamiyati oshib borayotgani oldimizda turgan bir qator vazifalarni xalq etish bilan bog'liq. Madaniy merosimizni eski andozalaru yondashuvlardan xoli holda chuqur va har tomonlama tadqiq etish, noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash, xalqimiz yaratgan, ammo turli sabablarga ko'ra chet ellarga chiqib ketgan madaniyat boyliklarini izlab topish va o'rganish bo'yicha ishlarni tizimli va tadrijiy davom ettirish bilan bog'liq vazifalar shular jumlasidandir.¹

Ayni paytda, fan, adabiyot, san'at, umuman milliy madaniyatimizning barcha sohalarini jahon madaniyati yutuqlari asosida boyitish va rivojlanishning yangi bosqichiga kutarishning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Bularning barchasi o'z navbatida mustaqillik ruhiyatiga singgan, yurt manfaati va millat istiqbol yo'lida qayg'uradigan yangi insonni tarbiyalashdek bosh vazifani xalq etishga xizmat qilishini ham alohida ta'kidlash zarur.

Qayd etilgan vazifalarni madaniyatimiz, ma'naviyatimiz, ma'rifatimiz taraqqiyotiga daxldor bo'lgan davlat va jamoat tashkilotlari ishini, ijodkor ziyolilarimiz va xalqimizning yaratuvchanlik faoliyatini muayyan yunalishda muvofiqlashtirmay, tashkil etmay, bir so'z bilan aytganda, boshqarmay turib muvaffaqiyatli xalq qilish mumkin emas. Ma'lumki, yaqin-yaqingacha necha un yillar davomida miqdoriy yondashuv ustuvor bo'lib keldi va asosiy diqqat madaniyat muassasalari soniga, kitoblar fondi, teatrlarning tomoshabinlarni qabul

¹ Bo'riyev O.B. An'anaviy uy qurish bilan bog'liq rasm-rusumlar. //O'zbek xalqi boqiy qadriyatlari. - Qarshi, 2005.

qila olishining miqdoriy karakteristikalariga alohida e'tibor berildi. Vaxolanki, miqdoriy ko'rsatkichlar qanchalik muhim bo'lmasin madaniyat muassasalari faoliyatining samaradorligi va sifati asosiy va muhim omil hisoblanadi. Bugun mamlakatimizda masalaning ana shu jihatiga alohida e'tibor berilayotganini mamlakatimiz madaniy hayoti, uni boshqarish bilan bog'liq xususiyatlarning o'zagini tashkil etayotganini e'tirof etish joiz.

Shunday bo'lsada, bir holatni alohida qayd etish lozim. Gap shundaki, bugungi kunda ham madaniyatni boshqarish sohasida iqtisodiy metodlarning tula ustuvorligini ta'minlash zarurligini ilgari suruvchi qarashlarni uchratish mumkin. Aslida, bozor iqtisodiyoti metodlarini madaniyatning barcha sohalariga ko'r ko'rona kuchirish amaliy jihatdan zararli, metodologik jihatdan esa noto'g'ridir.

Chunki madaniyatning barcha tarmoqlarini ham bozor iqtisodiyoti relslariga o'tkazish mumkin emas. Aytaylik, xalq amaliy san'atining yog'och uymakorligi, ganchkorlik yoki kino, estrada kabi san'at sohalarida bunday yondashuv tug'ri va urinli. Ammo, muzeylar, bibliotekalar, arxivlar kabi madaniyat muassasalari davlat va jamiyatning doimiy yordamini talab etadi.¹

Madaniyat rivojlanishini boshqarishni takomillashtirish ma'muriy va o'z-o'zini boshqarish usullarini qo'shib olib borish hamda madaniy faoliyatning mazmuni, shakli va metodlarini boyitishdek maqsadlarni o'z ichiga oladi.

Madaniyat muassasalarining moddiy bazasini mustaxkamlash esa, o'sib borayotgan madaniy ehtiyojlarni qondirishning xajmi va sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur jarayon madaniyat xodimlari malakasini muntazam oshirib borish hamda boshqarishning samaradorligi va sifatini yuqori ko'tarishdek maqsadlar kompleksni ham qamrab oladi.

Madaniyatning boshqaruv tizimi madaniy siyosatni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish bilan shug'ullanadigan muassasalar va organlar demakdir. U yoki bu organ, tashkilot, muassasaning ushbu jarayondagi ishtiroki esa uning darajasi (markaziy, mintakdviy, maxalliy), harakteri (davlat, jamoatchilik, aralash, halqaro)

¹ M.Quronov «Milliy tarbiya» -T.:2007.

hamda faoliyat sohasi (masalan, ta'lim, fan, san'at) bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mustaqillik sharoitida mamlakatimizda madaniy taraqqiyotni boshqarishning o'ziga xos tizimi yaratilganini ta'kidlash zarur. Buni ayrim tashkilotlar faoliyati misolida ham kurish mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan "O'zbekkino" davlat-aksiyadorlik kompaniyasining tashkil etilgani kino sohasida umummilliy siyosat yuritish uchun zamin yaratdi.

Bugungi kunda ushbu kompaniya Farmonda belgilangan milliy va umumbashariy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan, badiiy jihatdan yuksak, milliy-madaniy merosga hurmat-ehtirom va kelajakka ishonch tuyg'usini tarbiyalashga xizmat qiladigan kinovideomaxsulot ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazish;

Ikkinchidan, o'zbek milliy kino san'atining eng yaxshi yutuqlarini saqlab qolish va ko'paytirish, xalqning ma'naviy-axloqiy va madaniy mulkining bir qismi sifatida milliy kino va videofond barpo etish, saqlash, bu boradagi faoliyatni muvofiqlashtirish;

Uchinchidan, jahon kino san'atining eng yaxshi yutuqlarini targ'ib etish, chetdan harid qilinadigan kino va video maxsulotlarga ekspert bahosi berilishini amalga oshirish, kino san'ati sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

To'rtinchidan, kino tarmog'ini shakllantirish, boshqarish, kino fotografiya sohasida faoliyat yuritayotgan tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog'liq vazifalarni muvaffaqiyatli xal qilib kelmoqda.

O'zbek xalq boy badiiy meros, jahon san'ati rivoji tarixida o'ziga xos o'ringa, tasviriy va amaliy san'atning zamonaviy yunalishlari, xalq xunarmandchiligi bo'yicha shakllangan an'analar va maktablarga ega.

Ushbu meros va tajribani chuqur va ilmiy asosda o'rganish, rivojlanish istiqbollari belgilash, mazkur yunalishlardagi faoliyatni tizimli tashkil etish hayotiy-amaliy ahamiyatga egaligi shubxasiz.

Badiiy barkamol san'at asarlari yaratish, bu yo'ldagi harakatlarni rag'batlantirish, zarur moddiy-texnik bazani shakllantirish hamda tasviriy va amaliy san'at, dizayn, xalq xunarmandchiligi sohalari bo'yicha yuqori malakali

mutaxassislar tayyorlash ushbu maqsadga erishishning muhim yoʻnalishlari hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur jarayonda soha boʻyicha xalqaro ijodiy, ilmiy aloqalarni mustaxkamlash, oʻzbek milliy san'ati yutuqlarini dunyo jamoatchiligiga tanitishning ham oʻrni beqiyosdir.

Bugungi kunda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tashkil etilgan Oʻzbekiston Badiiy akademiyasi ana shu vazifalarni hal etish borasidagi ishlarni samarali tashkil etib, muvofiqlashtirib, boshqarib kelayotganini alohida qayd etish lozim.¹

Umuman olganda, oʻz ichiga markaziy, mintaqaviy, mahalliy davlat organlarini hamda jamoatchilik tashkilotlari va muassasalarini qamrab olgan boshqaruv tizimida ilmiy takomillashib, boyib borayotganini va samarali ishlayotganini eʼtirof etish lozim. Xususan, bu tizimda markaziy davlat tashkilotlari va muassasalari ichida umuman madaniyat va uning ayrim (taʼlim, fan, badiiy madaniyat va h.k.) sohalari rivojlanishining muhim, fundamental yunalishlarini belgilab beradigan, boshqaruv jarayonlarini olib boradigan tashkilotlar, ularning joylardagi bulimlarining oʻziga xos oʻrni borligini qayd etish lozim.

Ayni paytda, turli yoʻnalishlarda faoliyat olib borayotgan jamoat tashkilotlari, markazlar, uyushmalar, jamgʻarmalar ham mazkur tizimning zaruriy va eng muhim elementi hisoblanadi.

Ular bugungi kunda madaniy merosimizni oʻrganish, milliy qadriyatlarimiz, anʼana va urf-odatlarimizni tiklash, saqlash va rivojlantirish boʻyicha faoliyat olib borish, folklor ekspeditsiyalari tashkil etish, doimiy ravishda turli festival, kurik, tanlov, ijodiy kechalar oʻtkazish, iqidorli yoshlar ijodini ragʻbatlantirish borasida samarali faoliyat koʻrsatib kelmoqda.

Madaniyat jabxasida faoliyat koʻrsatayotgan turli ijodiy tashkilotlar va birlashmalar esa aholining madaniy ehtiyojlarini tulaqonli qondirish, milliy madaniyat, adabiyot, sanʼat, musiqa, teatr, kino yutuqlarini, maʼnaviy va axloqiy qadriyatlarni keng targʻib etish borasida sermaxsul natijalarga erishayotganlarini alohida qayd etish lozim. Oʻrta Osiyoning madaniy oʻchoqlaridan biri boʻlgan

¹ O.Musurmonova «Maʼnaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi» -T.: 1996 y

Farg'ona vodiysi shaharlari ham qadimdan boy tarixiy madaniy an'analarga egadir. Xususan, bu yerda turli xalq ustalari ijod qilib, o'zlaridan boy madaniy meros qoldirganlar.

XIX asr oxirlaridan boshlab esa vodiyy shaharlarida o'sha davr uchun zamonaviy bo'lgan yevropacha madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyat yurita boshlaydi.

Jumladan, bu davrda turli kutubxona, teatr va to'garaklar tashkil etilgan. Chunonchi, Farg'ona vodiysining deyarli barcha shaharlarida: Namanganda (1901), Qo'qonda (1905), Andijonda (1907) va Chustda (1913) kutubxonalar ochilgan. Lekin mazkur madaniy muassasalar asosan aholining rusiyzabon qatlamiga xizmat qildi.¹

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida madaniy muassasalarda siyosiy targ'ibot ishlari olib borishga katta e'tibor berildi. Kommunistik mafkurani aholiga singdirish maqsadida turli klub va to'garaklar tashkil qilindi. Farg'ona vodiysi shaharlarida ham musiqiy va drammatik to'garaklar hamda klublar ish boshlaydi. Xususan, 1921-yilda Qo'qonning "eski shahar" qismida musulmon xotin-qizlar klubi ochilib, unga 50 ta ayol a'zo bo'lgan edi.

Bunday klublarda turli mavzularda ma'ruzalar tinglangan, shuningdek, spektakllar qo'yilgan hamda savodsizlikni tugatish maktabi ishi yo'lga qo'yilgan. Sovet hokimiyati tomonidan tashkil etilgan partiya klublari qoshida adabiy, tabiiy fanlar, musiqiy va xor to'garagi ham mavjud edi.

1923 yilda ochilgan Qo'qonda Mehnat saroyida birinchi navbatda ma'ruzalar va suhbatlar o'tkazilgan. 1924 yilda Farg'ona viloyati ijroiya komiteti "Qizil Sharq" nomli temir yo'lhilar klubini tashkil qilish uchun 500 rubl ajratgan. Klublar turli ishlab chiqarish korxonalarida tashkil etilib, 1925 yilda Skobelevda 25 ta klub faoliyat yuritgan.

Bundan tashqari, bu yillarda kutubxonalar soni ham ko'payib borgan. 1930 yilda Farg'onada 5 ta kutubxona va 4 ta klub, 1933 yilda 20 ta kutubxona va 8 ta

¹ Bo'riyev O., Xoliqov D. Turkona an'ana va udumlar - millat ko'rki. - T.,1998.

klub faoliyat yuritgan, 1936 yilga kelib kutubxonalar soni 33 taga, klublar soni 11 taga yetgan. 1923-yilda Andijon viloyatida 3 ta klub faoliyat yuritgan bo'lsa, ularning soni 1928-yilda 21 taga yetdi. 1936-yilda Farg'onada 39 ta qizil choyxona bo'lgan, 1938-1939-yillarda Andijon shahrida va rayonida 44 ta klub mavjud bo'lgan.

Sovet hokimiyati xalq orasida targ'ibot ishlarini kuchaytirish uchun an'anaviy choyxonalardan ham foydalanishga kirishdi. Xalqning yig'ilib, ijtimoiy muloqot o'rnatish joyi bo'lgan choyxonalarni "qizil choyxonalar" deb atab, ularda gazetalarni o'qib berish, ijtimoiy-siyosiy mavzularda suhbatlar o'tkazish hamda savodsizlikni tugatish maktablari ishini yo'lga qo'ygan edi.

Bundan tashqari, ushbu choyxonalarda sovet hokimiyati o'rnatilishi bilan bog'liq bayramlarni nishonlash, birgalikda radio eshitish va kinofilmlar ko'rishni tashkil etib, bu usullar orqali birinchi navbatda xalqni o'z g'oyasi atrofida jipslashtirishni maqsad qilgan.

"Qizil choyxonalar" har qanday soliqlardan ozod qilinib, ular plakat, shior va kitoblar bilan ta'minlab turilgan.

Ularning soni yildan-yilga oshib borgan, jumladan, Andijon viloyatida 1928-yilda 59 ta bo'lgan bo'lsa, 1929-yilda ularning soni 73 tani tashkil etdi.

Madaniy muassasalar ichida kutubxonalar alohida o'rin tutadi. Sovet hokimiyati o'rnatilgandan so'ng barcha kutubxonalar Maorif xalq komissarligi tasarrufiga o'tkazilgan. 1928 yilda O'zbekistonda 187 ta kutubxona, 1932 yilda - 607, 1937 yilda - 1150 ta kutubxona faoliyat yuritgan.¹

1940 yilda Andijonda 15 ta kutubxona mavjud bo'lib, turli ishlab chiqarish korxonalari qoshida kichik kutubxonalar tashkil etilgan. Kutubxonalar xalqning madaniy saviyasi o'sishiga ta'sir ko'rsatgan bo'lsada, birinchi o'rinda ularni siyosiy jihatdan tarbiyalashga xizmat qildi.

Ayniqsa, dastlabki yillarda ulardagi kitoblarning asosiy qismi siyosiy mavzularda bo'lganligi sababli aholi orasida ular katta e'tiborga emas edi.

¹ www.ziyouz.com kutubxonasi

Sovet hokimiyati yillarida O'zbekistonda muzeylar tashkil qilish ishiga ham alohida e'tibor berila boshladi.

Muzeylarda ilmiy-tadqiqot, madaniy-ma'rifiy hamda g'oyaviy ishlar olib borilgan. Farg'ona vodiysida sovet hokimiyati o'rnatilguncha ham muzey mavjud edi. 1920-yilda Andijon va Namanganda muzey ochiladi.

1923-yilda Namangan muzeyida 6 ta bo'lim mavjud bo'lib, eksponatlar soni 770 tani tashkil etgan. 1924-yilda Qo'qonda Qo'qon xoni saroyida o'lkashunoslik muzeyi tashkil qilinadi, unga shu yili o'tkazilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ko'rgazmasi materiallari asos qilib olingan.

1925-yilda muzeyda rassomlar M.A.Arinin va N.F.Yakovlev tashabbuslari bilan san'atshunoslik bo'limi tashkil etilgan. 1926-yilda Moskva va Leningraddagi muzeylar Qo'qon muzeyiga ba'zi bir eksponatlar sovg'a qiladi.

Ular asosida muzeyda rassomchilik ekspozitsiyasi va haykaltaroshlik bo'limi uyushtiriladi. Bundan tashqari, Skobelevdagi muzey qayta tashkil etilgan bo'lib, unda Farg'ona vodiysining tarixi, tabiati va tabiiy boyliklariga oid materiallar mujassamlashgan edi.

Ta'kidlash joizki, sovet hokimiyati muzeylarida siyosiy mavzularga katta e'tibor berilgan va tabiiyki, bunda hukmron mafkurani targ'ib qilish maqsad qilingan. Jumladan, 1924-yilda Skobelev muzeyida sovet hokimiyatining "bosmachilik" tarixiga bag'ishlangan maxsus ekspozitsiya ochildi. Muzeylarni asosan maktab o'quvchilari borib ko'rganlar.¹

Masalan, 1940 yilda Namangan muzeyiga 46 ming kishi tashrif buyurgan va ularning asosiy qismini o'quvchilar tashkil qilgan. Ma'lumki, sovet hokimiyati tadbirlariga xalqni jalb etish uchun xalq artistlarini chaqirishgan. Xususan, Qo'qonda Ahmadjon Umurzoqov, Mahkam Hofiz, Andijonda Orifjon Toshmatov, Hayit Oxun, Marg'ilonda Yusuf qiziq Shakarjonov va usta Olim Komilovlar xalq oldida o'z san'atlarini namoyish etishgan.

Ko'pgina artistlar partiya, komsomol, kasaba ittifoqi, klublar, "qizil choyxonalar" qoshidagi ansambllarga birlashtirilgan. 1917-yil dekabrda Andijon

¹ www.ziyouz.com

soveti tomonidan ansambl tuziladi va u agitbrigada bilan birga Andijon aholisiga xizmat ko'rsatadi. Bunday ansambl Marg'ilonda ham tashkil etiladi. Mazkur ansambllar keyinchalik tashkil etilgan teatrlarga asos bo'lib xizmat qilgan. 1918 yilda Farg'onada shoir, dramaturg va kompozitor Hamza Hakimzoda Niyoziy tashkilotchiligida birinchi o'zbek sovet teatri tashkil etildi. Mazkur teatr qoshida Farg'ona viloyatining turli rayonlariga borib, tomoshalar ko'rsatish maqsadida sayyor teatr truppasi tuzildi. Shu yili Qo'qonda ham teatr truppasi tashkil etiladi. 1919 yilda Turkiston respublikasi inqilobiy harbiy sovet qaroriga ko'ra, barcha san'atkorlar "o'z kasbiy vazifalarini bajarish uchun" harbiy ro'yxatga olinadi.

Hamza boshchiligidagi o'lka musulmon truppasi Turkiston Harbiy qo'shinining siyosiy bo'limi tarkibiga kiritildi. 1919-yilning oxirida Andijonga Hamza Hakimzoda Niyoziy boshchiligidagi teatr truppasi tashrif buyuradi hamda Andijonda ham teatr tashkil etishga yordam beradi. Andijon teatrini tashkil etishda Orifjon Toshmatov (Orif Garmon) To'xtasin Jalilov katta hissa qo'shdilar. 1924-yilda Andijon teatri shaharning "eski qismida" yangi qurilgan binoda ish boshlaydi.

Mazkur teatr 1926-yildan "Umid" nomli Andijon o'zbek davlat ko'chma teatr-konsert truppasiga aylantirildi. 1927-yilda "haqiqiy ahvolni" ko'rsatish uchun keng imkoniyatlar yaratish maqsadida ushbu truppaga davlat tomonidan 14 ming rubl mablag' ajratildi.

Shu yili Andijon teatriga Qori Yoqubovning musiqiy etnografik ansambli qo'shiladi va Tamara Xonim, Gavhar Rahimova, Lutfixonim Sarimsoqova hamda boshqa san'atkorlarning kelishi madaniy muassasalar ishini jonlantirishga yordam beradi.¹ Namangandagi teatr to'garagi 1925-yilda "Sharq truppasi" deb atala boshlaydi va unda maktablarda ishlagan o'qituvchilar faoliyat yuritganlar. 1927-yilda teatr xalq ta'limi shahar bo'limi taasarrufiga o'tadi. 1929-yilda davlat viloyat teatriga aylantiriladi. Dastlabki yillarda Andijon teatri Namangan teatrini otaliqqa olgan hamda o'z artistlarini u yerga jo'natgan. Teatrlarning repertuarlaridan Hamza Hakimzoda Niyoziy, Zafariy va boshqa o'zbek dramaturglarining pyesalari

¹ Usmon Qoraboev "Madaniyat masalalari" 2001-y. 128-b

hamda jahon durdonalari o‘rin olgan. Shuningdek, rus yozuvchilarining asarlarini sahnalashtirishga ham alohida e‘tibor berilgan. Umuman, sovet hukumati turli tadbirlarini o‘tkazishda teatr truppalaridan ustalik bilan foydalandilar.

Xususan, yer-suv islohoti o‘tkazilganda ham mazkur teatr truppalari doimiy ravishda gastrol safarlarida bo‘lib, targ‘ibotchilardan keyin o‘zlari ham sovet hokimiyatining o‘tkazayotgan tadbirlarini targ‘ibotiga bag‘ishlangan sahnalashtirilgan tomoshalarni namoyish etishgan.

Ayniqsa, dastlabki yillarda “sinfy dushmanga” qarshi kurashda ulardan keng foydalandilar. Shunday qilib, sovet hokimiyati O‘zbekiston shaharlarida, jumladan Farg‘ona vodiysi shaharlarida aholini urbanistik tipdagi ommaviy madaniyatga jalb qilish shlarini boshlab yuborgan.

Shu bilan birga madaniy hayotdagi o‘zgarishlar shahar aholisini to‘liq qoplay olmadi, chunki shakllanish bosqichida bo‘lgan “proletar” madaniyati va ustun mavqega ega bo‘lgan an‘anaviy madaniyat o‘rtasidagi tavofut katta edi.

Sovet hokimiyati kommunistik jamiyat qurish uchun madaniy muassasalar faoliyati orqali xalq orasida o‘z g‘oyalarini yoyish, xalqning dunyoqarashiga ta'sir o‘tkazish va xalqni kommunistik g‘oyalar asosida birlashtirishni maqsad qilgan edi.

Bu davrda madaniy muassasalar ziddiyatli ravishda rivojlandi, bir tomondan ular aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish yo‘lida faoliyat yuritgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan vazifalariga sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda yondashdi. Sovet hukumati madaniy muassasalar faoliyati orqali aholining “sotsialistik” jamiyatda ijtimoiylashuvini ta'minlashga harakat qildi.¹ Shu boisdan madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va boshqarish xalqning manfaatini ko‘zlagan holda amalga oshirib kelingan va bundan keyin xalqimizga xizmat qilib kelmoqda. Ijtimoiy madaniy faoliyatni boshqarish uni samarali tashkil etish uchun o‘zining sohasining yetuk mutaxassislarini yetkazib berish bugungi kunda dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda.

¹ M.Quronov « Milliy tarbiya »-T.:2007.

2.2 Ijtimoiy-madaniy institutlarda yoshlarning madaniy tadbirlarni uyushtirish masalalari

Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e‘tibori avvalambor farzandlarimizning unub-o‘tib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz lozim.

Bugungi yoshlar ertaga jamiyatimizning taqdirini belgilovchi avlodidir. Biz bugun yoshlarga qanday tarbiya bersak, bizning kelajagimiz ham ushunday bo‘ladi. Yoshlarni kelajakka munosib tayyorlash, ularga yaxshi ta‘lim berish, ularni mehr-oqibatli, ilmparvar sahovatli, mehnatsevar, vatanparvar, odobli, axloqli qilib voyaga yetkazish jamiyatimizning asosiy vazifasi bo‘lib qolmog‘i lozim¹.

Bolalar tarbiyasi bilan oila, bolalar bog‘chasi, maktab va boshqa bilim yurtlari shug‘ullanishi barchaga ma‘lum. Biroq ularning, ayniqsa, bilim yurtlarining tasarrufidan tashqarida yoshlarning o‘qishdan, ishdan tashqarigi bo‘sh vaqti qolmoqda. Bo‘sh vaqtda esa bolalar xohlagan narsalari bilan shug‘ullanmoqda. Bekor qolgan bolalarning muayyan qismi salbiy oqibatlarga olib keluvchi «faoliyatlar» bilan ham mashg‘ul bo‘lishmoqda.

Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishda madaniy-ma‘rifiy muassasalar (ayniqsa, klub, madaniyat saroyi, madaniyat uyi kabilar)ning imkoniyati kattadir. O‘quv yurtlari, asosan, bolalarga bilim-ta‘lim berish bilan shug‘ullansa, madaniy-ma‘rifiy muassasalar ularning bo‘sh vaqtlarini maroqli o‘tkazishga ko‘mak beradi. Biroq, joylardagi madaniyat muassasalari aholining barcha qatlamlari uchun umumiy tadbirlar tayyorlashmoqda.

Ular yoshlarning ehtiyoji, qiziqishi va ularning ruhiyatiga mos tadbirlarni tayyorlashga alohida e‘tibor berishmayapdi. Natijada madaniy-ma‘rifiy muassasalarning yoshlarni ma‘naviy, axloqiy, ruhiy, badiiy tarbiyalash borasidagi faoliyati kerakli darajadan past bo‘lmoqda.

Hozirgi paytda yoshlarning bo‘sh vaqtini samarali, ijtimoiy foydali qilib uyushtirish maxsus tadqiqotlarga molik muammolardan biri bo‘lib, u olimlarimiz

¹ M.Quronov «Milliy tarbiya» -T.:2007.

va mutaxassislarimiz tomonidan jiddiy e'tiborni kutib turibdi. Bu boradagi madaniy-ma'rifiy muassasalar tajribasi maxsus o'rganishni, umumlashtirishni, tahlil va targ'ib qilishni talab qilmoqda.

Madaniy-ma'rifiy faoliyati muassasalari yoshlarning sevimli maskani sifatida ma'naviy-ma'rifiy, g'oyaviy-siyosiy, badiiy xavaskorlik ishlarni va bo'sh vaqtini mazmunli uyushtirishda muhim rol uynamoqda.

Ma'lumki, klub muassasalari o'z faoliyatlarini yoshlarning bo'sh vaqtida olib boradi. U yoshlarni asosiy ishi, o'qishdan tashqari har xil mazmun va shakldagi «ikkinchi» faoliyat bilan shug'ullanishlariga imkoniyat yaratadi. Bu kungilli faoliyat yoshlarning hordiq chiqarishga, bilimni, dunyoqarashini o'stirishga, ijodkorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Xullas, klub muassasalari, yoshlar uchun quyidagi vazifalarni bajaradi:

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish.

Havaskorlik ijodini uyushtirish.

Madaniy dam olishni tashkil qilish.

Klublarda yoshlar uchun tadbirlar uyushtirishdan oldin mahalliy yoshlarning:

- ma'naviy extiyojlari,
- qiziqishlari,
- bilim darajalari, kasbi,
- madaniy saviyalari,
- ijodiy imkoniyatlari,
- vaqt byudjeti va bo'sh vaqti,
- tashabbuskorligi va uyushqoqligi

kabi ko'plab omillar hisobga olinmog'i darkor. Aks holda klubda tayyorlanadigan tadbirlar yoshlar uchun qiziqarli bo'lmay qoladi. Mazkur omillarni hisobga olish, o'rganish, bilish uchun yoshlar o'rtasida yozma va og'zaki so'rovlar, so'hatlar, ko'zatishlar o'tkazilishi lozim. So'rovlarda yoshlarga:

qaysi mavzular,

qanday shakllar (tadbirlar),

qaysi ta'sirchan g'oyaviy-badiiy va texnik vositalar yoqishini

o'rganmoq lozim.

Yoshlarni qiziqtirgan mavzularni muayyan mantiqiy tizimga solib, ularning mazmuniga mos shakllar tanlab, yoshlar uchun maxsus tadbirlar rejasini tuzish lozim.

Zamonaviy yoshlarni quyidagi mavzular qiziqtirishi mumkin:

1. Tarixiy mavzular.
2. Milliy qadriyatlar.
3. Xalq an'analari.
4. Odob, axloq.
5. Kiyinish madaniyati.
6. Do'stlik va do'stlikni saqlash.
7. Qizlar va yigitlar munosabatlari.
8. Muhabbat, sevish va sevilish.
9. Bo'sh vaqtni foydali o'tkazish.
10. Mehmondo'stlik.
11. Ozodagarchilik va tozalik.
12. Ichkilikbozlik va giyohvandlik oqibatlari.
13. Oila fayzi va hokazolar.

Klub xodimlari yoshlarni qiziqtirgan mavzuni mantiqiy tizimga solganidan so'ng. Ularga qanday shakllar-tadbirlar yoqishini ham aniqlash kerak. Klub muassasalarining ishi, shakllari esa ko'p va rang-barangdir: ma'ruza, ma'naviy muloqot, doklad, axborot, suhbat, seminar, munozara, konferensiya, ijodiy uchrashuvlar, savol-javob kechalari, og'zaki, jurnal, kecha, konsert, spektakl, ommaviy tomosha, xalq sayllari, bayramlar, karnavallar, raqs kechalari, festival, diskotekalar, ekskursiya, madaniy sayr, viktorina, ko'rgazma, ko'rik-tanlov va hokazolar.

Aytaylik, yoshlar ko'proq dam olish kechalari, ijodiy bahs, uchrashuvlar, diskoteka, estrada konsert, teatrlashgan tomosha, xalq sayllari, sayohat kabi shakllarni tanlashdi. Klub xodimlari ko'proq ana shu shakllardan foydalanmog'i kerak.

Yoshlarni qiziqtirgan shakllar aniqlangandan so'ng, klub xodimlari mahalliy joydagi yoshlar qo'mitasi bilan birgalikda yillik tadbirlar rejasini tuziladi. Rejada tadbir o'tkaziladigan sana, tadbir nomi, shakli, o'tkazilish joyi va javobgar shaxslar ko'rsatiladi.

Tadbirlar rejasi yoshlar ehtiyoji va mahalliy sharoitdan kelib chiqib boyitilishi yoki o'zgartirilishi mumkin. Qanday bo'lmasin mahalliy madaniyat uyi va yoshlar qo'mitasi bilan rejalashtirilgan tadbirlar yoshlarni qiziqtirish, mavzuiga jalb etish lozim. Vaqt o'tishi bilan klub tadbirlari ham yoshlar sinovidan o'tadi. Shundan kelib chiqib kelgusi yilgi rejada qaysi tadbirlarga ko'proq, e'tibor berishni hayotning o'zi ko'rsatadi.

Yoshlar uchun tadbirlar tayyorlash ma'suliyatli va murakkab jarayondir. Biz mazkur ishda faqatgina uning ayrim tomonlariga diqqat jalb etib, yoshlarni madaniy dam olishi, yoshlar klubi va yoshlar saylini tashkil qilish masalalariga to'xtalamiz xolos..

«Bo'sh vaqt-ijtimoiy boylik» deyishadi. U insonning qobiliyatlarini takomillashtirishi, bilim olishi, ma'naviy kamol topishi, jismoniy rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Bo'sh vaqtdan samarali foydalanish bu birinchidan, mehnat unumdorligini oshirish, ikkinchidan, kishilarning ishda sarf bo'lgan kuchini tiklash, uchinchidan, sog'liqni mustahkamlash, ruhiyatni tetiklashtirish demakdir.

Madaniy dam olish jarayoni deyarli barcha klub tadbirlarida sodir bo'ladi. Biroq, klub shunday tadbirlarni tashkil qiladiki, ularda yoshlarning mazmunli dam olishi, hordiq chiqarish asosiy vazifa qilib qo'yiladi. Dam olish tadbirlarida yoshlar, birinchi navbatda, mazmunli dam olsalar, ikkinchi navbatda, o'zlari qiziqqan soha bo'yicha va har xil foydali ma'lumotlar olish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Respublika madaniy-ma'rifiy muassasalari, jumladan, klub, madaniyat va istirohat bog'lari yoshlarning bo'sh vaqtini uyushtirishda, ularni har xil badiiy havaskorlik tugaraklari va uyushmalariga jalb etib, turli bayramlar, teatrlashgan tomoshalar, sayllar, dam olish kechalar, raqs kechalari kabi turli tadbirlar tashkil qilish borasida yaxshi tajriba to'plashgan.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarda yoshlar bo'sh vaqtida qatnashadigan tadbirlar doirasi anchagina keng. Ular orasida muloqotli, kungilochar «Dam olish kechasi», «Shanba oqshomida», «Kulgi kechasi», «Do'stlik kechasi», «Qizlar davrasida» kabilar; San'at bilan bog'liq bo'lgan - «She'riyat kechasi», «Doston kechasi», «Qo'shiq va raqs oqshomi», «Musik;a ohangi», «Teatr ko'zgusi» kabilar; Bayramona dam olishga oid sayllar «Bog' sayli», «Tog' sayli», «Lola sayli» kabilar;

Xalq o'yinlari, musobaqalarga boy «Sog'lik-tuman boylik», «Azaliy o'yinlar» kabi tadbirlar keng shuhrat qozongan¹.

Madaniyat va istirohat bog'lari va klublarida uyushtiriladigan tadbirlar foydalanilgan vositalar turli tavsiya harakterida bo'lishi mumkin. Ayniqsa, ma'rifiy-huquqiy, musiqali-raqsli va badiiy-adabiy tavsifdagi tadbirlarni tashkil qilish yaxshi natija beradi. Ma'rifiy-hordiqli tadbirlardagi yangi axborotlar, ma'lumotlar, bilimlarni olish, hordiq, chiqarish jarayoni bilan chambarchas bog'lanib ketadi.

Odatda bunday dasturlar ikki qismdan tashkil topadi: birinchi bo'limda yoshlarni qiziqtiradigan mavzu tanlanib, bunda axborotlar badiiy shaklda tomoshabinlarga havola qilinadi. Ko'pincha bu qismga odamlarni o'ylantiradigan va hayajonga soladigan muammolar ham olinadi. Dasturning ikkinchi qismida esa maroqli dam olish uchun o'nlab turli qiziqarli o'yinlar, topishmoqlar, viktorinalar, qo'shiqlar va hokazolar foydalaniladi. Musiqali-raqsli tadbirlar, asosan, musiqa, ashula va albatta raqslardan tashkil topadi.

Bunday tadbirlarda bu san'at turlarining eng yaxshi namunalari targ'ib qilinadi. Unda eng yaxshi raqs uchun musiqa bilimdonlari va sevimli qo'shiq ijrosi uchun omma o'rtasida tanlovlar o'gkazilishi mumkin.

Musiqali-raqsli tadbirlarni ikki turi bor, ularning biri kichik auditoriya uchun mo'ljallanib, undan musiqa fonotekasidagi texnik vositalaridan foydalaniladi, ikkinchisiga esa kichik estrada ansambli taklif qilinib o'tkaziladi. Shuningdek, musiqa-raqs dasturlari o'zbek va chet el musiqasi, raqs san'atiga bag'ishlanib, unga

¹ Ashirov L. "Avesto"dan meros marosimlar. - T.: Meros, 2001.

mashhur kompozitor-bastakorlar, ashulachilar va raqs ustalarini taklif qilish mumkin.

Musiqali-raqsli tadbirlarning asosiy vazifalari san'atni targ'ib etish, yoshlarni musiqa va raqs ijodiga oshno qilish, ularga ma'naviy oзуqа berish.

Badiiy-adabiy tadbirlar-adabiyot va san'at janrlaridan tashkil topgan dasturlardir. B}nday tadbirlarda badiiy-emotsional vositalar: badiiy so'z, she'r, monolog, qo'shiq, ashula, raqs kabilar muayyan mazmunga bog'lanib teatrlashtiriladi. Adabiy-badiiy tadbirlar foydalanadigan vositalarga boy bo'lgani uchun, ular odatda ijtimoiy-falsafiy muammolarga ham bag'ishlanib, yoshlarni tarbiyalashda katta rol o'ynaydi. Bunday tadbirlar tashkil qilishda tashkilotchilar bilim doirasi, dunyoqarashi, qobiliyatlari va tashabbuskorligi muhim va hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Yoshlarning ma'naviy kamolotiga e'tibor berish, kelajak avlodni tarbiyalash maqsadida xalq an'analari va qardosh xalqlar tajribasi asosida joylarda yoshlar talab va ehtiyojlarini hisobga olib maxsus sayl o'tkazilsa yaxshi bular edi. Yoshlar saylini 24-aprel Yoshlarning xalqaro birdamlik kuni, yoki 10-noyabr Butun jaxon yoshlar kuni yoki mahalliy sharoitga qapab boshqa kun uyushtirilsa bo'ladi.

Bayram boshlanishidan oldin maktablar, tarbiya muassasalari, o'quv yurtlari, mehnat jamoalarida maxsus tayyorgarlik ko'riladi.

Mahalliy yoshlar qo'mitalari turli tadbirlar, jumladan, yosh rassom, yosh qo'shiqchi, yosh shoir, yosh raqossa tanlovlarini rejalashtirsa bo'ladi. Bayramning ochilish qismida yoshlar qo'mitasining raisi, kotiblari, mahalliy hokimiyat rahbarlari, yoshlar hay'ati, faoliyati haqida so'zlaydilar, ularga o'z istaklarini bildirishadi. So'ng katta sayl boshlanadi. Unda har bir o'quv yurti o'z ijodi, san'atini namoyish qiladi.

Yoshlar o'rtasida qiziqarli o'yinlar va sport musobaqalari o'tkaziladi.

Chunonchi, «Balli, yigitlar» va «Balli, qizlar» kabi tanlovlar ham tashkil qilinadi.

Bayramning oxirgi qismida ko'rik-tanlov g'oliblari taqdirlanadi, ularga bag'ishlanib kuy va qo'shiqlar ijro etiladi.

Bo'sh vaqtda yoshlar uchun nafaqat madaniyat xodimlari, balki yoshlarning o'zi ham madaniy dam olish tadbirlarni tashkil qilsa bo'ladi. Buning uchun madaniyat muassasalarda yoshlar to'planadigan, so'hatlashadigan, ijodiy ehtiyojlarni qondiradigan maxsus sharoitlar yaratmog'i lozim. Bu borada «Yoshlar xonalari», «Yoshlar klublari», «Yoshlar ijodiy guruhlari» kabi tajribalardan yaxshi foydalansa bo'ladi. Ayniqsa, madaniyat uyi qoshida keng qamrovli faoliyat olib boruvchi «Yoshlar klubi» tashkil qilish ijobiy natija berishi mumkin. «Yoshlar klubining a'zolari o'zlarining ma'naviy ehtiyoji, talabi, qiziqishi asosida turli shakldagi maroqli va mazmunli tadbirlarni uyushtirishi mumkin.

Shuningdek, ular nafaqat o'zlarining, balki mahalliy yoshlarning madaniy dam olishiga yordam berishi diqqatga sazovordir. «Yoshlar klubi»ni tashkil qilish borasida quyidagi metodik maslahatlarni tavsiya etsa bo'ladi: «Yoshlar klubi» maxsus reja va dasturlar tuzib, ish olib boradi, klub a'zolari dam olish kechasi tashkil qilib, unta har gal yangi jamoa a'zolari, yosh ishchilar, talabalar, yuqori sinf o'quvchilari va boshqalarni taklif qilsa bo'ladi. «Yoshlar klubi»ga, albatta, rais, tashkilotchi va bo'limga javobgar shaxslar saylanishi kerak.

Klub raisi - umumiy raxbarlik qilib, yig'ilish o'tkaziladigan joy va vaqtni rejalashtiradi. Raisga yordamchi - maxsus tashkilotchi ham belgilanadi. Eng qiziqarli ishni badiiy qismga javobgar shaxs olib borishi mumkin. U har bir yig'ilishning badiiy programmasini tuzadi. U uyushma a'zolarining ijodiy qobilyatlaridan kelib chiqib, she'r, hikoya, ashula, askiya, latifa, topishmoqli uyinlarni kim va qachon aytishini belgilaydi.

Bunday rahbar ishning diqqatiga sazovor tomoni shundaki, u uyushma a'zolarining u yoki bu sohadagi ijodiy qobilyatini ochadi. Uyushma a'zolari rioya qilishi shart bo'lgan «Nizom» qabul qilinishi bu intizom ishlarini yaxshilashga asos bo'ladi. Intizomga javobgar shaxs - bu ishlarni nazorat qilishi bilan birga, yig'ilish bo'ladigan joyni tartibga keltiradi.¹

¹ www.ziynet.uz

«Yoshlar klub»larining foydali tomonlari shundaki, u eng avvalo, bshlarni yaxshi hordiq chiqarishga, muloqot, soʻhbat natijasida ma'naviy boyishga, ijodiy qobilyatlarini namoyish qilish va rivojlantirishga koʻmak beradi.

«Yoshlar klubi» faoliyatini uyushtirish va ularni ijtimoiy foyda keltiradigan darajada tashkil qilishga yordam berish - bu mahalliy madaniyat muassasalarining jiddiy vazifasi boʻlmogʻi lozim.

Yoshlarning ravnaqi uchun keng imkoniyatlarga ega boʻlgan boʻsh vaqtdan samarali foydalanishda madaniy-hordiqiy tadbirlarning ahamiyati benihoyat kattadir.

Yoshlar uchun maxsus tadbirlar tayyorlashda madaniy-ma'rifiy muassasalar va yoshlar qoʻmitasi hamkorlikda faoliyat olib borgandagina yaxshi natijalarga erishiladi. Tashkilotchilar yoshlar uchun tadbirlar uyushtirayotganida an'analar, tajribalardan foydalanish bilan bir qatorda yangilik, ijodkorlik, tashabbuskorlikka aloxida e'tibor bermoqlari zarur. Yoshlar ijod va yangilik shaydosi ekanligini unutmaslik kerak.

Shuni qayd qilish kerakki, turli joyda yoshlarni vaqti, ehtiyoji, qiziqishi har xil boʻlishi mumkin. Bir hududda shoʻhrat topgan tadbir, boshqa joyda qiziqish uygʻotmasligi mumkin. Shuning uchun har joyning oʻz tadbirini topishga intilish kerak.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, chuqur ma'noli, mazmunli va shaklan goʻzal va qiziqarli tadbirlar koʻpchilikka yoqar ekan. Joylarda yoshlarning madaniy dam olishini uyushtirishda tadbirning mohiyati, mazmuni va ijtimoiy ahamiyatiga alohida e'tibor berish kerak. Shuningdek, yoshlar uchun tadbirlar tashkil qilishda mahalliy sharoit, madaniyat muassasalarining moddiy, ma'naviy, badiiy va texnik imkoniyatlaridan hamda badiiy havaskorlik jamoalarining ijodidan samarali foydalanmoq lozim.

Oʻzbekiston Respublikasi taraqqiyoti davomida hayotning barcha soha va tarmoqlarida olamshumul yutuqlarni qoʻlga kiritdi, dunyo hamjamiyatidan munosib oʻrin egallab, milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlab, tom ma'nodagi ozod va suveren mamalakatga aylandi

O'zbek davlatchiligi rivojidadagi tarixiy tajribalarga tayangan holda, insonparvar, demokratik huquqiy davlat tamoyillariga mos ma'naviy-ma'rifiy faoliyat uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishda yoshlarni faol ishtirok etishlari endilikda hayotiy dolzarb masala bo'lib turibdi.

Ma'lumki yurtimiz aholisining 64 foizini yoshlar tashkil etadi. Demokratik jihatdan olib qaraydigan bo'lsak O'zbekiston Respublikasi yoshlar mamlakati deyishga ilmiy asoslar bor. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda "Har qaysi davlat yoki millat o'z farzandlari qiyofasida unib o'sib kelayotgan yosh avlod timsolida, shu xalqqa xos eng go'zal fazilatlarni namoyon etadigan, uning ezgu-orzu niyatlarini amalga oshirishda mardlik, fidoiylilik ko'rsatishga qodir bo'lgan o'z tayanchi va suyanchini ko'rishi tabiiydir"¹.

Bizning bugungidek dorilomon kunlarda istiqlol bergan barcha imkoniyatlar zahirida komilikka yetishayotgan yoshlarimizning ijtimoiy hayoti qaysi orzu intilishlar tomon yo'nalganligi va uni maqsadli amalga oshirishda turli vositalar jumladan, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatini ham o'rni beqiyosdir.

Qadimda tabiblar musiqa bilan ham bemorlarning dardini davolaganlar. Madaniy ma'rifiy muassasalar o'z faoliyatini amalga oshirishda musiqani asosiy omillardan biri deb hisoblaganlarida bu faoliyatning ta'sir kuchini oshirib, insoniyatni tarbiya vositasiga aylanishini ko'zlaganlari ham ayni haqiqatdir.

Hozirgi kunda madaniy-ma'rifiy muassasalar respublikamiz madaniyat va sport ishlari vazirligi tarmog'ida bo'lib, viloyatlar, tuman qolaversa chekka-chekka qishloq hayotiga kirib borish, ularning ijtimoiy turmush darajasini yaxshilash, madaniylashuvni amalga oshirish, shuningdek, insonparlik, qalban poklik, mehru - muruvat, hayri-sahovat, dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, eng asosiysi yosh avlodni milliy ma'naviyatimiz, urf-odatlarimizga sodiq qilib tarbiyalash, jamiyat kishilari ko'z o'ngida tinch va osuda hayotga intilish va uning qadriga yetish, jaholatga qarshi ma'naviyat bilan kurashmoq, yosh avlod ong shuurida yot g'oyalar paydo bo'lishi, mafkuraviy bo'shliq vujudga kelishini oldini olishga qaratilgan amaliy faoliyatni amalga oshiradi.

¹ Karimov f.A. Istiqlol va ma'naviyat. - T.:, 1994.

Xalq ijodi-tarixiy taraqqiyot davomida xalqning idealariga badiiy munosabat va intilishdan iborat bo‘lib kelgan.

Shuningdek, madaniy ma'rifiy muassasalar faoliyatini rivojlantirish, yoshlar ma'naviyati borasidagi amaliy harakatlarni amalga oshirishda kasaba uyushmalari hamkorligiga tayanish, jamoalardagi yosh kadrlar kasbiy maxorati bilan bir qatorda ma'naviy salohiyatini oshirishga qaratilgan yangicha ish uslubini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi.

Shu o'rinda Prezident I.A.Karimov fikriga to'xtalish darkor "Madaniy jamoatchiligimiz, avvalambor musiqashunos olimlar, ustoz san'atkorlar, kompozitorlar, yozuvchi va jurnalistlar, ko'p sonli san'at ixlosmandlari bunday masalalar yuzasidan o'z fikrini ochiq bildirib borishi, shu tariqa yoshlarimizga to'g'ri tarbiya berishimiz ham qarz, ham farz."¹ Bu bevosita madaniy ma'rifiy muassasalar faoliyati doirasida xalq amaliy san'ati namunalari, texnik ijodiyot, badiiy adabiyot orqali milliy mentalitetimizga xos xususiyatlarni yosh avlod ongiga singdirish bu bevosita yoshlar hayot faoliyatining maqsadli yo'naltirishda ulardan foydalanish ham moddiy ham ma'naviy ta'minot bazasiga aylantirishdan iborat faoliyat faqatgina ta'lim muassasalarininggina vazifasi emasligi, bu jarayon aynan madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyat turi va maqsadlaridan biriga aylanmog'i kerakligini yana bir karra isbot etadi.

Ayni kunlarda Respublikamizning barcha hududlarida faoliyat yuritayotgan madaniy-ma'rifiy muassasalarning yoshlar tarbiyasiga ta'siri katta albatta. Madaniy-ma'rifiy muassasalarda o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarning asosiy ishtirokchilari yoshlar ekani, eng asosiysi esa tashkilotchilar tarkibida yoshlarning mavjudligi bu tadbirning maqsadi yoshlar masalalarini ham qamrab olishini behtiyor ta'minlaydi. Shu narsani alohida ta'kidlash kerakki, yoshlar hayoti, muammolari va yutuqlari haqida yoshlar o'zigina haqiqiy ta'surotni beradi, eng ta'sirli ifoda vositasi bo'ladi.

Har qanday sharoitda ham barcha millat va xalqlar o'zining ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga muxtojlik sezadi. Ma'naviyat – inson uchun mavjudlik

¹ Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - T.:, 1998.

belgisi. Ma'naviy boylik – u yoki bu millatni boshqa etnik birikmalardan o'ziga xosligini bildiruvchi, anglatuvchi muhim omildir. Ma'naviyati yo'q xalqning o'zi yo'q. Shu bilan birga har bir xalq ma'naviyati ham bir xil darajada emas. Shu o'rinda mamlakat yurtboshisining «biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilarmiz, tarixning tag-tomirigacha nazar tashlaymiz»,–degan fikrlarida juda mantiq va ma'no bor. Biroq, sho'rolar mustabid tizimi sharoitida o'zbek milliy madaniyati xaddan ortiq darajada ko'p zarar ko'rdi. Barcha mustamlakachilik kabi kommunistik mafkura maddoxlari ham o'zbek xalqini qul qilish uchun eng avvalo shu xalqning milliy madaniyatini yo'q qilishga zo'r berdilar.

Ta'kid etish joizki, ma'naviy madaniyati yuksak, uning ildizlari baquvvat xalqning ijtimoiy ongidan shu xalq madaniyatini xech qachon tamomila yo'q qilish mumkin emas. To'g'ri mustamlakachiliklar natijasida o'zbek madaniyatiga katta zarar yetkazildi, uning ma'naviy ildizlarini qirqib tashlashga urinildi.

Lekin ular buning uddasidan chiqa olmadilar.

O'zbek xalqi katta yo'qotishlarga qaramasdan o'zligini, o'z milliy madaniyatini saqlab qola bildi. Bunga yaqin va uzoq tarix guvoxdir. Endigi vazifa ma'naviy hayotdagi barcha yo'qotishlarning o'rnini qoplashdan iborat bo'ldi. Bu narsa xalqimizning ma'naviyat va ma'rifatga muxtojligi va uning tanqisligi bilan belgilandi. Kishining o'zligini anglashi, o'z sha'nini ximoya qila olishi va barcha yomonliklardan o'zini tiya olishi uchun orif bo'lmog'i, qalbining tubida, jinday bo'lsa-da, ma'rifat shamchirog'i yonib turmog'i lozim.

Ana shunda odam gunoxdan xazar qilish, barcha ne'matlardan aql-idrok va insof doirasida foydalanish yo'lini tutadi. Nojo'ya xatti-harakatlari uchun tavbat-zarru qilish zarurligini anglay boshlaydi.

O'zbek xalqi aynan shu yo'ldan bordi, o'z milliy-tarixiy, madaniy merosiga sodiqligini ko'rsata bildi. Bu esa mustamlakachiliklar davrida yo'qotilgan, taptalangan madaniy merosni tiklash, o'zligini anglashga bo'lgan rag'batni uyg'otdi.

Istiqlool yillarida o'zbek madaniy hayoti uyg'ondi, jonlandi va o'zining butun mavjud bo'y-bastini ko'rsata bildi.

Teatr, musiqa san'ati rivoj topdi, madaniy aloqalar kengaydi, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati takomillashdi, muzeylarning ijtimoiy-ma'rifiy ahamiyati oshdi, milliy adabiyot ravnaq topdi.

Ayniqsa, teatr san'atining rivoji gullab yashnadi. Bu bejiz emasdi, zero mustamlakachilik davrida teatrlar kommunistik mafkuraning xizmatkoriga aylangan, siyosiy maqsadlarnigina bajaruvchi kuchga aylangan edi.

Shu asnoda asosiy e'tibor repertuar masalasini xalq etish, tomoshabinlarni bezdiradigan sahna asarlari o'rniga ularning ma'naviy-ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi spektakllarni fuqarolar xukmiga xavola etishga asosiy e'tibor qaratildi.

Hozirgi sharoitda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan 36 ta dramatik, musiqali drama va komediya, opera va balet, qo'g'irchoq teatrlari ana shunday vazifalarni bajardilar. 1998-yil 26-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning «O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Unga binoan, O'zbekiston tomosha san'atining ko'p asrlik an'analarini o'rganish, boyitish va targ'ib qilish, teatr san'atini har tomonlama rivojlantirish, uning moddiy bazasini yanada mustaxkamlash, mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy isloxlarni amalga oshirishda teatr arboblarning faol qatnashishini ta'minlash, Respublika Madaniyat ishlari vazirligi teatr tashkilotlari negizida va teatr arboblari uyushmasida badiiy zamonaviy sahnabop asarlar yaratish maqsadida Madaniyat ishlari vazirligi tizimida va teatr ijodiy xodimlari uyushmasi qoshida «O'zbekteatr» ijodiy-ishlar chiqarish birlashmasi tashkil etildi.

«O'zbekteatr» birlashmasi o'zining teatr tashkilotlari hamda mintaqaviy bo'limiga ega bo'lib, mulkchilik shakllaridan va qandaydir muassasaga idoraviy daxldorligidan qat'i nazar mamlakatdagi barcha davlat teatrlari, teatr studiyalarida xalq teatrlari va boshqa tegishli tashkilotlar jamoalarini ixtiyoriy tartibda birlashtirdi. Teatr san'atini rivojlantirish yo'lida 1998-yil noyabr oyida o'tkazilgan «Xumo» xalqaro yoshlar teatrlarining festivali aloxida ahamiyat kasb etdi.

Ushbu festivalda O'zbekiston va Isroil davlatlarining eng yaxshi teatr jamoalari ishtirok etdilar. Mazkur festival doirasida 32 ta spektakl namoyish etildi, ularni 20 mingdan ortiq tomoshabin tomosha qildi¹.

O'zbekistonning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi natijasida ma'naviy madaniyatning muhim jabxasi bo'lgan musiqa san'ati ham juda rivoj topa boshladi, zero tabiatan nozikta'b, san'atsevar va san'at axliga talabchan o'zbek xalqining musiqasi keng qo'lamli ma'naviyat ko'zgusidir.

Sho'rolar davrida asosan mafkuraviy xukmronlik qo'lga aylangan mazkur san'at turi erkinlik yo'lga kirdi. Jamiyat a'zolari milliy qo'shiqchilik san'atidan baxramand bo'la boshladilar.

O'zbekiston xukumati xalqimizning milliy qo'shiqchilikka bo'lgan ijtimoiy ehtiyojini e'tiborga olib milliy ruxdagi, xalqning ko'ngliga yaqin musiqa asarlarini yaratishga bo'lgan qiziqishni doimo rag'batlantirdi. Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq musiqa san'ati bo'yicha qator ko'rik-tanlovlar o'tkazila boshlandi.

Xususan, 1992-yil mart oyida Toshkent shaxrida tanbur, sato, qo'shnay, surnay va boshqa milliy soz ijrochilarining «Asrlarga tengdosh navolar» deb nomlangan respublika ko'rik tanlovi, aprel oyida Toshkent viloyatida xavaskor qo'g'irchoq teatrlari jamoalarining ko'rik-tanlovi, shuningdek, mashxur san'atkorlar Jo'raxon Sultonov, Saidjon Kalonov, Komiljon Jabborov, Nabijon Xasanov, Komiljon Otaniyozov, Faxriddin Sodiqov, Janaq Shomuratovlarning asarlari ijrochilarining «Boqiy ovozlar» deb nomlangan ko'rik-tanlovlari o'tkazildi. Ayni vaqtda 1992-yil may oyida Xorazm viloyatida folklor jamoalarining, askiya, qiziqchi va masharabozlarning, iyun oyida Qo'qonda o'tkazilgan IX an'anaviy va lapar, yalla ijroiylarining avgust oyida Toshkent shaxrida o'tkazilgan XI an'anaviy ko'rik tanlovi milliy san'atimiz rivojiga katta xissa bo'lib qo'shildi.

Mamlakatimiz hukumati qo'shiqchilik san'atidan mustaqillikning ma'naviy zaminlarini mustahkamlashda ham unumli foydalanishga e'tiborni kuchaytirdi.

¹ www.google.uz

Shu maqsadda 1995-yil dekabrda «O‘zbekiston-Vatanim manim» mavzuidagi qo‘shiqlar ko‘rik-tanlovi e‘lon qilindi. Mazkur tanlov barcha viloyat, shahar va tumanlarda juda katta ko‘tarinkilik ruxida o‘tkazildi va uning natijasida yuzlab yangi, mustaqillik davri qo‘shiqlari yaratildi, ko‘plab iste‘dodli san‘atkorlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.¹

«O‘zbekiston – Vatanim manim» qo‘shiq ko‘rik-tanlovining 1996-yil mart oyida bo‘lib o‘tgan birinchi bosqichida 54 mingdan ortiq san‘atkorlar ishtirok etdi, 10 mingdan ortiq yangi musiqiy asarlar yaratildi. Qayd etish lozimki, mazkur tanlov istiqlolni, Vatanni, o‘zligini anglashda muhim qadam bo‘ldi.

Xalqimizning bunday tadbirga qiziqishi ortiq bo‘ldi.

Bularning barchasini e‘tiborga olib, 1996-yil avgustda «O‘zbekiston Vatanim manim» qo‘shiq bayrami haqida» maxsus farmon qabul qilindi. Farmonda fuqarolar qalbida muqaddas Vatan tuyg‘usini tarbiyalovchi yuksak badiiy saviyadagi musiqa asarlari va qo‘shiqlarning yaratilishiga keng imkoniyat yaratish maqsadida har yili avgust oyining uchinchi yakshanbasi «O‘zbekiston - Vatanim manim» qo‘shiq bayrami kuni, deb belgilab qo‘yildi.

Ayni paytda, xalqimizning qo‘shiqchilik san‘atiga bo‘lgan buyuk qiziqishini e‘tiborga olib, Madaniyat ishlari vazirligi xuzurida «O‘zbeknavo» gastrol-konsert birlashmasi tashkil etildi.

Natijada, mazkur ko‘rik-tanlov hozirda ommaviy tus oldi, unda nafaqat o‘zbek milliy, shu bilan birga mamlakatimizda istiqomat qilayotgan boshqa barcha xalqlar vakillarining erkin ijod qilishi, o‘z san‘atlarini namoyish etish imkoniyati yaratildi. Professional va xalq badiiy ijodiyoti asosida san‘atning qo‘shiqchilik turiga teng e‘tibor berilishi, ularning uyg‘un rivojlanishiga sharoit yaratilishi tufayli mazkur san‘at turi yanada rivoj topmoqda.

¹ www.ziynet.uz

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyoti davomida hayotning barcha soha va tarmoqlarida olamshumul yutuqlarni qo'lga kiritdi, dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin egallab, milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlab, tom ma'nodagi ozod va suveren mamalakatga aylandi

O'zbek davlatchiligi rivojidadagi tarixiy tajribalarga tayangan holda, insonparvar, demokratik huquqiy davlat tamoyillariga mos ma'naviy-ma'rifiy faoliyat uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishda yoshlarni faol ishtirok etishlari endilikda hayotiy dolzarb masala bo'lib turibdi.

Mustaqil O'zbekistonda ijtimoiy madaniy institutlarning taraqqiy topishi va madaniyat muassasalari insonni ixtiyoriy asoslarda, unga doimiy hurmat va ishonch ruhida ijtimoiy-ijodiy faoliyatga tortadi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat hamma vaqt to'la ixtiyoriylik tamoyillari asosida quriladi. Agar mehnat jamoalarida insonning faoliyati ba'zan sof moddiy sabablarga kura belgilansa, ijtimoiy-madaniy faoliyatda, birinchi navbatda, faoliyatning mazmuniga qiziqish asosida namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, ijtimoiy-madaniy institutlar va muassasalar jamoasi shaxsning ma'naviy-ijodiy qobiliyatini namoyon qilish va rivojlantirish uchun erkinlik beradi. Bu tamoyilning ahamiyati ijtimoiy-madaniy muassasasiga qatnashishning ixtiyoriyligi, u yoki bu ijtimoiy-madaniy uyushmalarida ishtirok etishni tan olish bilan cheklanib qolmaydi. Ixtiyoriylik ijtimoiy-madaniy muassasalari tomonidan taklif qilinadigan ko'plab faoliyat turlaridan birini erkin tanlab olish imkoniyatini aks ettiradi va shaxsning bo'sh vaqt sharoitida o'z ijtimoiy-madaniy faoliyatining mazmunini o'zi tomonidan belgilab olishini ifodalaydi.

Hozirgi zamon ijtimoiy-madaniy institutlar ishlari kulamining muttasil oshib borishi va murakkablashuvi undan turli sohalarning o'zaro aloqasini, ilmiy asosda markazlashgan, rejali boshqaruvni talab etadi. Ilmiylik tamoyili ijtimoiy-madaniy faoliyatning kuzga kuringan tamoyillaridan biri hisoblanadi. U ijtimoiy-madaniy faoliyatda tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, shakli va uslublarini qo'llashni,

bir-biriga yaqin fanlar-pedagogika, psixologiya, san'atshunoslik, estetika, iqtisodiyot va boshqaruv nazariyasining yutuqlaridan foydalanishni talab etadi.

Shu boisdan madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va boshqarish xalqning manfaatini ko'zlagan holda amalga oshirib kelingan va bundan keyin xalqimizga xizmat qilib kelmoqda. Ijtimoiy madaniy institutlar faoliyatini boshqarish uni samarali tashkil etish uchun o'zining sohasining yetuk mutaxassislarini yetkazib berish bugungi kunda dolzarb maummolardan biriga aylanib bormoqda.

Respublika madaniy-ma'rifiy muassasalari, jumladan, madaniyat va aholi dam olish markazlari, madaniyat va istirohat bog'lari yoshlarning bo'sh vaqtini uyushtirishda, ularni har xil badiiy havaskorlik to'garaklari va uyushmalariga jalb etib, turli bayramlar, teatrlashgan tomoshalar, sayllar, dam olish kechalar, raqs kechalari kabi turli tadbirlar tashkil qilish borasida yaxshi tajriba to'plashgan.

Bizning bugungidek dorilomon kunlarda istiqlol bergan barcha imkoniyatlar zahirida komilikka yetishayotgan yoshlarimizning ijtimoiy hayoti qaysi orzu intilishlar tomon yo'nalganligi va uni maqsadli amalga oshirishda turli vositalar jumladan, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatini ham o'rni beqiyosdir.

Xulosa qilib aytganda Mustaqil O'zbekistonimizda Ijtimoiy madaniy institutlarning qo'lami kengayishi va taraqqiy etishi yurtimiz aholisining turmush tarzini yaxshilashning yana bir muhim shartlaridan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.:, 2008.
2. Karimov I.A. Istiqlool va ma'naviyat. - T.:, 1994.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. - T.:, 1995.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997.
5. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - T.:, 1998.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: O'zbekiston, 2000.
7. Abdurahimov T. O'zbek xalq o'yinlari va tomoshalari. - T.:, 1997.
8. Abduraxmonov A. Ulug'bek akademiyasi. -T.:, 1993.
9. Abduxaliqov S. Madaniyat tarixi va uning masalasi. - T.: Fan, 1992.
10. «Avesto» va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni. -Toshkent.: Urganch. 2001.
11. Asqarov A. O'zbekiston tarixi. - T.: O'qituvchi, 1994.
12. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. - T.: Universitet, 2007.
13. Ashirov L. "Avesto"dan meros marosimlar. - T.: Meros, 2001.
14. Ashirov L. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. - T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007.
15. Ashirov A., Ahmadjonov Sh. Etnologiya. - T., 2007.
16. Ahmedov B. O'zbek ulusi. -T.: A Qodiriy nom. Xalq merosi nashr., 1992.
17. A.Erkayev. Ma'naviyat - millat nishoni. -T.: Ma'naviyat, 1997;
18. Bobomurodov A. Islom odobi va madaniyati. - T.: Choipon 1995.
19. Bo'riyev O., Xoliqov D. Turkona an'ana va udumlar - millat ko'rki. - T.:,1998.
20. Bo'riyev O.B. An'anaviy uy qurish bilan bog'liq rasm-rusumlar. O'zbek xalqi boqiy qadriyatlari. - Qarshi, 2005.
21. Vamberi H. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. - T.:, 1990.

22. Vatan madaniyati tarixi. - T.:, 1995.
23. Jabborov f. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. - T.: O'qituvchi. 2003.
24. Kalonov K. O'zbekistonda o'zini-o'zi boshqarish tizimi dinamikasi tahlilida obro'ning roli. (Sots. f.n. dissertatsiyasi) -T.: O'zMU, 2000. -24
25. Bekmurodov M. Demokratik jamiyatda oila Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. –Toshkent.: 2003. №4 (24). -b. 30.
26. Bekmurodov M.B., Begmatov A. Milliy mentalitet va rahbar ma'naviyati. – Toshkent.: Adolat, 2003. - 77 b.
27. Beruniy A. R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent.: O'zdnashr, 1951. - 250 b.
28. M. Bekmurodov “O'zbek mentaliteti” –T.: 2011 yil.
29. Behbudiy M. Sag'irlar haqinda. Oyina (1914-1915 yy). – Toshkent.: Akademiya, 2001. - 130 b.
30. Boboyev H., Hasanov S. «Avesto» - ma'naviyatimiz sarchashmasi. – Toshkent.: Adolat, 2001. - 140 b.
31. Giddens E. Sotsiologiya. – Toshkent.: Sharq, 2002. - 848 b.
32. Griffin K. Sotsialnaya politika i ekonomicheskoye preobrazovaniye v Uzbekistane. PROOON. 1995. - 180 s.

Internet saytlari.

www.google.uz

www.ziyonet.uz

Ilovalar.

1-ilova.

hayotiylik

ommaviylik

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning
o'ziga xos tamoyillari ularni
tashkil qilishda yo'l-yuriqlar
ko'rsatadigan asosiy manba
hisoblanib, ular quyidagilardan
iboratdir.

ilmiylik.

ixtiyoriylik

